

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

**FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI BO‘LIMI**

MUMTOZ ADABIYOT TARIXI KAFEDRASI

5120100– Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

ZIYAYEVA SHOHISTA NUMANJON QIZIning

**SAYID QOSIMIYNING “MAJMA’ UL-AXBOR” DOSTONIDA
AN’ANA VA O’ZIGA XOSLIK**
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: **f.f.n., dots. Tohirov S.Q**

Samarqand – 2017

MUNDARIJA

Ishning umumiy tavsifi.....	3
I BOB. Sayyid Qosimiy va uning “Majma’ ul-axbor” dostoni.....	7
I.1. Sayyid Qosimiy shaxsiyati va adabiy merosi manbalari.....	7
I.2. “Majma’ ul-axbor” asarining yaratilishi, kompozitsiyasi.....	13
II BOB “Majma’ ul-axbor” dostonida an’ana va badiiy mahorat.....	18
II.1. “Majma’ ul-axbor” va xamsanavislik an’anasi.....	18
II.2. “Majma’ ul-axbor” dagi maqolot va hikoyatlarning mavzu rang-barangligi va g‘oyaviy xususiyatlari.....	37
II.3. Dostondagi hikoyatlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.....	55
Xulosa.....	59
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	63

MALAKAVIY BITIRUV ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Har qanday asar badiiy adabiyotda o'ziga xos o'ringa ega. U qaysi davrda yaratilgan bo'lmasin, biror tarixiy voqelikdan, o'sha davr xalq hayoti, ijtimoiy hol–ahvolidan, ma'lum ma'noda badiiy to'qimadan, ijodkollarning ilmiy merosidan xabar beradi.

Ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor haqida so'z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan. XV asr turkiy adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Sayyid Qosimiyning "Majma' ul – axbor" dostonining adabiyotdagi o'rni, mavzuning nisbatan kam o'rganilganligi, xamsanavislikning shakllanishidagi ahamiyatini aniqlash bugungi kun kitobxoniga ham g'oyaviy, ham badiiylik jihatdan o'rganilishi lozim bo'lgan mavzulardan biridir. Shoirning dostoni adabiyot tarixining yana bir muhim manbasi sifatida xizmat qilishiga shubha yo'q. Bizga ma'lumki, xamsachilik an'anasi o'z–o'zidan paydo bo'lmagan, asarning "Xamsa" larning ilk dostonlari tipida yozilishi ushbu an'ananing shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Alisher Navoiy o'z "Xamsa" sini yaratishda o'zidan oldingi salafarga murojaati tabiiy holat bo'lib, shoirning "Majma' ul –axbor" dostonidan ta'sirlangan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Bugungi kunda hukumatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev tomonidan savodxonlik va kitobxonlikka e'tiborni oshirish haqidagi bir qancha ilg'or fikrlaridan iqtibos olgan holda, bugungi kunda o'quv va ilmiy adabiyotlarni chop ettirish borasida ham ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan, Sayyid Qosimiy dostonlarining ham bugungi kitobxon uchun o'ziga xos ahamiyati mavjud. Asardagiso'zboshiva hikoyatlarning asosan pand – nasihat ruhida ekanligi, o'rni bilan xalq og'zaki ijodiga ham murojaat etib maqollardan o'rinli foydalanganligishoirning yuksak mahorat egasi ekanligidan, badiiy merosining

maxsus o'rganilishga loyiq muhim manbaligini isbotlaydi. Shu maqsadga yo'naltirilgan ushbu bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi shubha qoldirmaydi.

Mavzuning o'rganilishi. Sayyid Qosimiy XV asr turkiy adabiyoti va xamsanavislik an'anasiga o'z hissasini qo'shgan shoirlardan biridir. Uning "Majma' ul – axbor" asari va bizgacha yetib kelgan dostonlarining o'rganilishi muhim deb hisobladik. Bitiruv malakaviy ishning mavzusi birinchi dostonga bag'ishlangan. Sayyid Qosimiyning hayoti va ijodi adabiyot tarixida nisbatan kam o'rganilgan mavzu bo'lib, B.Qosimxonovning ilmiy ishlaridan so'ng bu mavzuning o'rganilishi to'xtab qoldi.

1979-yilda O'zbekiston FA Qo'lyozmalar instituti tomonidan tashkil etilgan navbatdagi arxeografik ekspeditsiya natijasida shoir asarlarining, aniqrog'i, "Gulshani roz" dostonining XIX asrda ko'chirilgan yana bir qo'lyozmasi aniqlandi. Shoir adabiy merosidan namunalar ilk marotaba 1987-yilda "O'zbek adabiyoti bo'stoni" seriyasi ostida nashr ettirilgan "Muborak maktublar" majmuasida muallif haqidagi muxtasar ma'lumot bilan birga nashr ettirildi.¹

Sayyid Qosimiy adabiy merosini matnshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etgan olim B.Qosimxonov shoir adabiy merosi haqida "Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari" nomli monografiya e'lon qildi.²

Ushbu monografiyada olim "Majma' ul – axbor" dostonidagi hikoyatlarni tahlil qilar ekan, hikoyatlarni mavzu ko'lamiga ko'ra ikki guruhga ajratib o'rganishni tavsiya qiladi. Olim bu monografiyasida " Shoh Qubod", "Rishta kasaliga muhtalo bo'lgan shoh", "Xoja va gado" – hikoyatlarini ijtimoiy – siyosiy hikoyalarga kiritdi; "Zohid va fosiq", "Sulton Muhammad G'oziy", "Shoh Jamshid", "Fariduni Farrux", "Sher va tulki" va boshqa hikoyatlarni axloqiy – ta'limiy hikoyatlarga kiritgan.

Sayyid Qosimiy adabiy merosi to'g'risida olim o'z fikrlarini to'liq asoslay oldi va mavzuning dolzarbligini isbotladi. Biroq dostonlarni o'rganish olim

¹Sayyid Qosimiy. Haqiqatnoma. Sadoqatnoma // Muborak maktublar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti, 1987. 144-182 hamda 183-209-betlar.

²Qosimxonov B. Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari. – Toshkent: Fan, 1987. – 147 b.

tadqiqotidan soʻng, afsuski, toʻxtab qoldi. Olim oʻn yillik tadqiqotlari natijasini nomzodlik dissertatsiyasi shaklida himoya qildi³ hamda 1992-yilda “Masnaviylar majmuasi” nomi bilan “Fan” nashriyotida shoirning toʻrtala masnaviysini ham chop ettirdi.⁴ N. Rahmonov tomonidan nashrga tayyorlangan “Oʻzbek mumtoz adabiyoti namunalari” majmuasida,⁵ R. Vohidov va H. Eshonqulovning “Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi” kitobida⁶ Qosimiy haqidagi maʼlumotlar hamda asarlaridan namunalarni uchratish mumkin.

Sayyid Qosimiy shaxsiyatini oʻrganish hali adabiyotda ommalashmagan, bir qancha olimlar oʻz tadqiqotlarini olib borgan boʻlsalarda, hali hanuz shoir asarlari toʻliq oʻrganilib boʻlinmadi. Quyida Sayyid Qosimiyning “Majmaʼ – ul axbor” asari tahlili olib borildi. Bitiruv malakaviy ishining asosiy vazifasi, asardagi hikoyatlarning boshqa hikoyatlardan farqli vaoʻxshash tomonlarini aniqlashdan iboratdir.

Bitiruv ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi kafedrasida 2016-2020- yillar uchun “Oʻzbek tili va adabiyotiga oid manbalar tadqiqi va taʼlimi” umumiy mavzusi ostida istiqbol reja tuzilgan boʻlib, mazkur ilmiy izlanish ushbu reja asosida Alisher Navoiyga qadar turkiy adabiyotda xamsanavislik anʼanasining shakllanishi muammosining tarkibiy qismi sifatida maydonga kelgan.

Sayyid Qosimiyning “Majmaʼ ul – axbor” asarinining gʻoyaviy – badiiy xususiyatlarini yoritib bera olish, bitiruv ishining umumiy xususiyatlaridan biri asarning xamsanavislik anʼanasi bilan bogʻliqligini aniqlash, asarni ilk dostonlar bilan aloqasini aniqlashga erishishdan iboratdir.

Malakaviy bitiruv ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi Sayyid Qosimiyning “Majmaʼ ul axbor”

³Саййид Касими и его литературно-дидактические поэмы. Автореферат кандидата наук. – Ташкент, 1991.

⁴Sayyid Qosimiy. Masnaviylar majmuasi. – Toshkent: Fan, 1992. – 236 b.

⁵Oʻzbek mumtoz adabiyoti namunalari. Majmua. 1 jild. Tuzuvchi: N. Rahmonov. – T.: Fan, 2005.

⁶Vohidov R., Eshonqulov H. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi (Oʻquv qoʻllanma). – T.: Yangi asr, 2006.

asariningg‘oyaviy - badiiy xususiyatini aniqlash, hikoyatlarning ilk dostonlar hikoyatlari bilan qiyosiy tahlil qilish, asarda qo‘llanilgan badiiy san’atlar va shoir adabiy merosi o‘rganilishi muhim bo‘lgan mavzu ekanini asoslashdan iboratdir.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim bo‘ladi:

- Sayyid Qosimiyvaning “Majma’ ul-axbor” dostonini o‘rganish bo‘yicha qilingan ishlarni umumlashtirish;
- “Majma’ ul-axbor” dostonining yaratilishi, arxitektonika va kompozitsiyasig‘a xos asosiy belgilarni aniqlash;
- “Majma’ ul-axbor” dostonini Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul – asror” dostoni bilan qiyoslash, mushtarak va farqli jihatlarini aniqlash;
- “Majma’ ul-axbor” tarkibidagi “sarsuxan” va hikoyatlar mavzusi, obrazlar tizimi, mazmun va g‘oyasini shu xildagi asarlar bilan qiyosan tahlil qilish;
- asarlar tarkibidagi hikoyatlar genezisi hamda g‘oyaviy-badiiy xususiyatlariga oid imkon qadar yangi ma’lumotlarni aniqlash;
- “Majma’ ul-axbor” asarida qo‘llangan badiiy san’atlarning rang – barangligini ko‘rsatib berish;
- shoirning Alisher Navoiyga qadar turkiy masnaviynavislik va xamsanavislikdagi, o‘rnini aniqlash va asoslash.

Tadqiqotning ob‘yekti va manbalari. Tadqiqotning asosiy obyekti Sayyid Qosimiyning “Masnaviylar majmuasi” ga kiritilgan birinchi dostoni “Majma’ ul axbor” [5]⁷ masnaviysi matni hisoblanadi.

Bitiruv ishini bajarishda Sayyid Qosimiy masnaviylari kiritilgan “Muborak maktublar”[8], “Navoiyning nigohi tushgan”[11], Yo.Is’hoqovning “Naqshbandiya va o‘zbek adabiyoti”[17] kitoblaridan asosiy manba sifatida foydalanildi. Shu maqsadda B.Qosimxonovning “Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari” monografiyasiga ham murojaat etildi. Shuningdek, Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul – abror” va “Lison ut tayr” va

⁷Katta qavs ichidagi raqam havola etilgan manbaning adabiyotlar ro‘yxatidagi tartib raqamini ifodalaydi.

boshqa badiiy adabiyotlardan qiyosiy tahlil uchun material sifatida foydalanildi. Tadqiqotda, shuningdek, B.Valixo‘jayev, N.Komilov, R.Vohidov, M.Muhiddinov, D.Salohiy, N.Rahmonov kabi olimlarning ishlaridan ilmiy manba sifatida o‘rni bilan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologiyasi va metodi. Milliy istiqlol mafkurasi hamda yurtboshimizning milliy mafkura va madaniyatga doir dasturiy ko‘rsatmalari, gumanitar sohalar umuman, ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishlariga oid qarashlari ushbu bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Mavzuni yoritishda qiyosiy-tarixiy, ilmiy tavsif metodlaridan foydalanildi. Adabiyotshunoslik sohasida fundamental tadqiqotlar yaratgan A.Qayumov, A.Hayitmetov, B.Valixo‘jayev, A.Qayumov, N.Komilov, I.Haqqulov, M.Muhiddinov, D.Salohiy kabi olimlarning ilmiy ishlaridagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Bitiruv ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida tadqiq va tahlil etilgan Sayyid Qosimiy masnaviylari mamlakatimiz ta‘lim tizimining deyarli barcha oliy o‘quv dasturlariga kiritilgan. Ammo, shoirning hayoti va ijodi hali keng miqyosida o‘rganilmagan bo‘lib, darsliklardagi ma‘lumotlar keng emas. Bitiruv ishining amaliy ahamiyati ham ana shundan iborat, modomiki, shoir xamsanavislik an‘anasidan xabardor va unga javobiya yozishi shoir ijodini keng ko‘lamda o‘rganishni talab qiladi. Binobarin, bitiruv malakaviy ishi materiallari, unda bildirilgan fikr-mulohaza va xulosalar Akademik litsey va KH kollejlari hamda oily ta‘lim bakalavriat bosqichining “Filologiya va tillarni o‘qitish” yo‘nalishi o‘quv dasturlariga kiritilgan “Adabiyot”, “O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish adabiyoti” fanlari yuzasidan yaratiladigan o‘quv adabiyotlarining XV asrga oid bob va fasllarini to‘ldirish, takomillashtirish imkonini beradi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi an‘anaviy tuzilishga ega bo‘lib, Kirish, jami beshta faslni o‘z ichiga oladigan ikkita asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyot va manbalar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 65sahifani tashkil etadi.

I. BOB.

SAYYID QOSIMIY VA UNING “MAJMA’ UL-AXBOR” DOSTONI

1.1 Sayyid Qosimiy shaxsiyati va adabiy merosi manbalari.

XV asr adabiy muhitida ijod qilgan shoirlar ijodi, xalq og‘zaki ijodiga yaqinligi bilan boshqa davr shoirlaridan farqlanadi. XV asr birinchi yarmiga mansub shoirlarimizdan biri Sayyid Qosimiydir. U bu davrda yashab ijod qilgan Haydar Xorazmiy, Gadoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Durbek, Hofiz Xorazmiy va boshqa shoirlar qatori turkiy adabiyotning rivojlanishiga, keyinchalik Navoiydek buyuk zotning yetishib chiqishiga zamin hozirlaydi.⁸Bu davr shoirlarining asarlarini asosan, she’riy shaklda yana ham aniqrog‘i, g‘azal va masnaviy shaklda ijod qilish tashkil etar edi. Temuriylar davrining yetuk vakillaridan biri Abu Sa’id Mirzo o‘z davrining mashhur shohlaridan hisoblanadi. Biz XVasr adabiyotida o‘ziga xos yo‘nalishda ijod qilgan shoir Sayyid Qosimiyning Abu Sa’id Mirzoga bag‘ishlab yozgan asari – “Majma’ ul – axbor” asarini tahlil qildik. Avvalo, muallif haqidagi ma’lumotlarga yuzlanadigan bo‘lsak, shoir shaxsiyati haqida, ya’ni tug‘ilgan joyi, aniq yashagan yillari haqida ma’lumotlar yetib kelmagan.

Turkiy va fors-tojik adabiyoti tarixida Qosim va Qosimiy kabi ism va taxalluslar ostida ma’lum bo‘lgan ijodkorlar talaygina. Ular orasida eng mashhur shoir, mutafakkir va mutasavvuf shoir XIV asrning oxiri, XV asrning boshlarida yashagan Sayid Qosimi Anvordir. “Majolis un-nafoyis” tazkirasida birinchi o‘rinda tilga olingan mazkur fors-tojik adabiyoti vakili haqida Alisher Navoiy shunday ma’lumot beradi:

“MirningasliOzarbayjondindurvamavludiSarobotlig‘kentdindur.

YigitliklaridashayxSadriddinArdabiliy

(quddisasirruhu)g‘amuridbo‘ldilarvasufiyaodobvatariyqinandintakmilqilibshayxish
oratibilaXurosong‘akeldilarvaozvaqtdaxaloyiqMirxizmatig‘afiriftabo‘lubg‘avg‘oqi

⁸H. Allamberganov. O‘quv – uslubiy majmua. Nukus – 2011. – 72 b.

laboshladilar. Podshohizamon Mirgaixrojhukmiqildi. Balxva Samarqandsariborib, muddatebo‘lub, yanadurus-saltanatazimatiqildilar, yana CHig‘atoymirzodalari, balki ulusozadalarimuridbo‘lib, hujumqilaboshladilar. Ravishlaripokerdivanafaslariotashnok.

Elbag‘oyatalarnazmlarig‘amoyilvashe‘rlarino‘qumoqvabitimakkarog‘ibbo‘ldilar.

A.M.Sherbak “Поэтические произведения предшественников Навои” nomli maqolasida Britaniya muzeyida OCh 1893 raqami bilan saqlanuvchi qo‘lyozmada Lutfiy, Javhariy, Qambar o‘g‘li va Maxsur baxshilarning uyg‘ur yozuvi bilan eski o‘zbek tilida yozilgan g‘azallari borligi haqidagi ma‘lumotlarni keltiradi. Shu o‘rinda Qosim taxallusli quyidagi bir g‘azali ham keltirib Qosimiyning bizgacha yetib kelgan yagona turkiy g‘azali ushbudir – deydi:

Ey sanam tangring uyin dardig`a qilg`il chorani,
G`amza o`qin otib, qilding yurakka yorani.

Ishvalar qilmoq bila bag`rimni pora aylading.

Ne ziyon qilur sanga so`rsang bu bag`ri porani.

A.M.Sherbak o‘zining 1959-yilda nashr ettirgan “Oguzname – Muhabbatname” nomli asarida Lutfiy, Javxariy, Qambar o‘g‘li va Mansur baxshilar haqida gapirib Qosimiy haqidagi ma‘lumotlar hech bir katalogda uchramaganligini yana bir bor ta’kidlaydi. Oradan uch yil o‘tgach Sherbak o‘zining “Грамматикастароузбекскогоязыка” nomli asarida yuqoridagi shoirlar to‘g‘risida so‘z yuritib, Qosimiy taxallusi bilan yozilgan g‘azalinng muallifi haqida shunday deydi: “Касым – полноеимяКасимаАли – ибнНасирибнХарунибнАбулкасималХусайнийатТабризийбонумерв 1431 гаду. Касымийпринадлежитдиванифилософскоесочинение“Анисул-орифин” наперсидскомязике”. Qosim Anvor o‘zining ilg‘or fikrlari bilan o‘z davrining shuhratli kishilaridan bo‘lgan. Shunday ekan Alisher Navoiy uning turkiy tilda ijod haqida o‘zining “Majolis ul- nofois” asarida gapirgan bo‘lur edi. Garchi g‘azal “Gulshani roz”da uchramasa-da uning mavzusi va uslubidagi Qosimiy g‘azaliyoti bilan hamohangligidan kelib chiqib, mazkur g‘azalni Qosim Anvorga nisbat

berishdan ko`ra Sayid Qosimiy qalamiga mansub deb taxmin qilishimiz haqiqatga yaqinroqdir. Chunki shoir o`z ijodi haqida “Yozug`im asru ko`pu, ozdur savob” deyishining o`zi bizga ushbu dostonlardan boshqa ham asarlar yozganligidan xabar beradi.

Sayyid Qosimiy ijodiyoti va hayoti haqida manbalardan uning zamondoshlari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar hozirchabizga ma`lum bo`lmasa-da, shoirning didaktik dostonlari orqali va unda ko`tarilgan ijtomoiy va siyosiy fikrlar orqali Sayyid Qosimiyning yetuk iste`dod egasi ekanligini ko`ramiz.

Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush shuaro” asarida ham Qosim, Qosimiy taxallusi bilan qalam tebratgan bir qator shoirlar haqida ma`lumot bor. Shamsiddin Somiyning “Qomus ul-a`lam”, Xayyompurning “Farhangi suxanvaron” tazkirasida, shuningdek, sobiq ittifoq hududidagi ko`plabqo`lyozma fondlar haqidagi kataloglarda ham shu taxallusdagi shoirlar haqida ma`lumotlar uchraydi.⁹

Biroq hozirga qadar tilga olingan Qosimiylarning birontasi XV asrning II yarmida turkiy tilda masnaviylar yaratgan Sayyid Qosimiy bilan aloqador ekanligi isbotlanmagan.

XV asr turkiy adabiyotida o`zo`rniga ega bo`lgan Sayyid Qosimiy o`z davrining yetuk shoiri sifatida e`tirof etiladi. Bu davrda shoirlar o`z orzu – istaklarini she`riyatga singdirganlar. Naqshbandiya tariqatining nafasi Sayyid Qosimiy she`rlarida ham seziladi. Chunki bu davr allomalari bilan aloqasi borligini biz Yoqubjon Is`hoqovning “Naqshbandiya tariqati o`zbek adabiyoti” asari orqali bilib olamiz. Shoir tarjimayi holi haqida batafsil ma`lumot yo`q. Uning to`rtta dostoni – “Majma` ul-axbor”, “Gulshani roz”, “Haqiqatnoma”, “Ilohiynoma” dostonlari ma`lum. Sayyid Qosimiy dostonlarni yaratish bilan turkiy adabiyotda XI- XII asrlarda rivoj topgan didaktik dostonchilik an`analarini mahorat bilan davom ettirgan shoirdir. Sayyid Qosimiyning merosini o`rganisho`tgan asrning 80-yillari oxiri, aniqrog`i, 1977-yilda Hamid Sulaymonov rahbarligidagi

⁹Qosimxonov B. Qosimxonov B. Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari. –Toshkent: Fan, 1987. 11-bet.

ekspeditsiyalar davomida aniqlandi. Hindistonning Rampur shahridagi Rizo kutubxonasida saqlanadigan Sayyid Qosimiyning to'rtta masnaviysi jamlangan qo'lyozma haqida ma'lumot beriladi. Qo'lyozma hijriy 1044 (1634)-yilda Buxoroda mashhur kotib Muhammad Sodiq Munshiy tomonidan ko'chirilgan bo'lib, asarning umumiy hajmi 4468 misrani tashkil etadi.

1979-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qo'lyozmalar institutidan tashkil etilgan navbatdagi ekspeditsiya natijasida shoir asarlaridan biri, aniqrog'i, "Gulshani roz" dostonining XIX asrda ko'chirilgan yana bir qo'lyozmasi aniqlandi.

Shoir adabiy merosidan namunalar ilk marotaba 1987-yilda "O'zbek adabiyoti bo'stoni" seriyasi ostida nashr ettirilgan "Muborak maktublar" majmuasida muallif haqidagi muxtasar ma'lumot bilan birga nashr ettirildi.¹⁰

Sayyid Qosimiy adabiy merosiga matnshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etgan olim B.Qosimxonov shoir adabiy merosi haqida "Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari" nomli monografiya e'lon qildi.¹¹ Olim o'n yillik tadqiqotlari natijasini nomzodlik dissertatsiyasi shaklida himoya qildi¹² hamda 1992-yilda "Masnaviylar majmuasi" nomi bilan "Fan" nashriyotida shoirning to'rtala masnaviysini ham chop ettirdi.¹³

O'tgan asrning so'nggi o'n yilligi hamda yangi asrning o'tgan davrida Sayyid Qosimiy shaxsiyati va adabiy merosi, masnaviylarining g'oyaviy badiiy xususiyatlari bir qator ilmiy maqola hamda o'quv adabiyotlarida qisman yoritildi. Jumladan, N.Rahmonov tomonidan nashrga tayyorlangan "O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari" majmuasida,¹⁴ R.Vohidov va H.Eshonqulovning "O'zbek

¹⁰Sayyid Qosimiy. Haqiqatnoma. Sadoqatnoma // Muborak maktublar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti, 1987. 144-182 hamda 183-209-betlar.

¹¹Qosimxonov B. Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari. – Toshkent: Fan, 1987.

¹²Саййид Касими и его литературно-дидактические поэмы. Автореферат кандидата наук. – Ташкент, 1991.

¹³SayyidQosimiy.Masnaviylar majmuasi. –Toshkent: Fan, 1992.

¹⁴O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari.Majmua. 1 jild. Tuzuvchi: N.Rahmonov. – T.: Fan, 2005.

mumtoz adabiyoti tarixi” kitobida¹⁵ Qosimiy haqidagi ma’lumotlar hamda asarlaridan namunalarni uchratish mumkin.

1979-yilda O‘zbekiston FA Qo‘lyozmalar instituti tomonidan tashkil etilgan navbaddagi arxiografik ekspeditsiya natijasida shoir asarlarining, aniqrog‘i, “Gulshani roz” dostonining XIX asrda ko‘chirilgan yana bir qo‘lyozmasi aniqlandi.¹⁶

Shundan keyin masnaviynavis shoir va mutafakkir adabiy merosiga qiziqish, Qosim va Qosimiy taxallusli shoirlar haqida ma’lumot to‘plash ishlari boshlandi.

Shoir adabiy merosidan namunalar ilk marotaba 1987-yilda “O‘zbek adabiyoti bo‘stoni” seriyasi ostida nashr ettirilgan “Muborak maktublar” majmuasida muallif haqidagi muxtasar ma’lumot bilan birga nashr ettirildi.¹⁷

Sayyid Qosimiy adabiy merosi, uning qo‘lyozma manbalarini matnshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan monografik planda tadqiq etish ishlari adabiyotshunos olim B.Qosimxonov zimmasiga tushdi. Olim Sayyid Qosimiy adabiy merosi bo‘yicha ancha izlanishlar olib bordi. “Gulshani roz” dostonining Toshkentda saqlanadigan va yanglish tarzda Navoiyga nisbat berilgan nusxasini aniqlab Rampur nusxasi bilan qiyosan tadqiq etdi. Tadqiqotning ilk natijalarini “Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari” nomli monografiyasida (1987) e‘lon qildi.¹⁸ Olim 1991-yilda “Sayyid Qosimiy va uning adabiy-didaktik dostonlari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.¹⁹ Dissertatsiyada Sayyid Qosimiy masnaviylari qo‘lyozmasi hamda ularning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlariga doir atroflicha fikr-mulohaza yuritilgan.

XIV-XV asrlar o‘zbek dostonchiligining rivojlangan davri bo‘lib, ikki tendensiya – biri sujetli asar yozishga intilish, ikkinchisi konkret sujet chizig‘iga

¹⁵Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (O‘quv qo‘llanma). –T.: Yangi asr, 2006.

¹⁶Muborak maktublar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. 143-bet.

¹⁷Sayyid Qosimiy. Haqiqatnoma. Sadoqatnoma // Muborak maktublar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. 144-182 hamda 183-209-betlar.

¹⁸Qosimxonov B. Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari. –Toshkent: Fan, 1987.

¹⁹Саййид Касими и его литературно-дидактические поэмы. Автореферат кандидата наук. – Ташкент, 1991.

ega bo‘lmagan didaktik poemalar yaratishga bo‘lgan intilish tendensiyasi yuzaga keldi. Sharq, jumladan, o‘zbek va fors-tojik adabiyotida didaktik dostonchilik ijtimoiy hayot va inson faoliyati mavzuini yoritishga o‘tib, inson va jamiyat, inson va ijtimoiy tabaqalar, inson va axloq muammolari kabi muhim masalalarni qamrab ola boshladi. Shu kabi didaktik dostonlar ijod qilgan mutafakkir shoirlardan biri Sayyid Qosimiydir.

Sayyid Qosimiy o‘z davrining ma’rifatli shoiri sifatida e’tirof etilar ekan, uning o‘z taxallusini qo‘llagan misralariga nazar tashlab, uning turkiygo‘y shoir ekanini bilib olamiz. Biz o‘rganmoqchi bo‘lgan Qosimiy yuqorida taxmin etilgan Qosimiy taxallusli shoir emas, boshqa shoir ekanligini, ularning hech biriga o‘xshamasligini alohida aniqlab olish bitiruv malakaviy ishini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sayyid Qosimiy o‘z taxallusini “Majma’ ul – axbor” dostonida asosan, so‘zboshining yakunida yoki undan oldingi baytda qo‘llaydi. Masalan, Sayyid Qosimiy taxallusini asarida ko‘p o‘rinlarda uchratish mumkin:

Qosimiydan kelsa xatovu gunoh,
Lutfu karam birla kechur, yo iloh.

Qosimiyg‘a ko‘z uchindin qil nazar,
Bandang erur qilma oni darbadar.

Qosimiydir ushbu ayitg‘an faqir,
Hasratu g‘am ilgida bo‘lgan asir.

Sayyid Qosimiy masnaviylarining Hindistonning Rampur shahrida saqlanadigan qo‘lyozma nusxasi quyidagi dostonlarni o‘z ichiga oladi:

“Majma’ ul-axbor” – 2088 misra;

“Gulshani roz” – 544 misra;

“Haqiqatnoma” – 1114 misra;

“Ilohiynoma” (“Sadoqatnoma”) – 722 misra.

Sayyid Qosimiy XV asr turkiy adabiyotiga o‘z ijodiy merosi orqali katta hissa qo‘shgan, uning hayoti va ijodi, badiiy merosini o‘rganish mumtoz adabiyot

tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shoir adabiy merosi xamsanavislik an'anasining ilk shakllanish bosqichini o'rganish uchun yetarli ma'lumot bera oladi, shuningdek an'anaviylik va o'ziga xoslik shoir merosining asosini tashkil etib, shoir an'anani saqlab qolgan holda o'ziga xos yo'ldan boradi. Bu esa, Sayyid Qosimiy adabiy merosini chuqur o'rganish lozimligini bildiradi.

1.2 “Majma’ ul – axbor” asari yaratilishi va kompozitsiyasi.

Sayyid Qosimiyning “Majma’ ul- axbor” dostoni H. Sulaymonov tomonidan keltirilgan qo'lyozmada birinchi asar bo'lib, u yo'qolgan deb taxmin qilinayotgan 1- 29 varaqlardan so'ng ya'ni 30 b – 66 b varaqlarida joylashgan. 30 a betining yuqori chap burchaagida “ Masnaviy “ Majma’ ul- axbor” birinchi juzvi Nizomiyning “ Maxzan ul – asror” i vaznida yozilgan” degan so'zlar bor. Uning pastrog'ida Rizo kutubxonasining muhri bosilgan. Asar matni juda nafis, turli ranglar va oltin suvi yuritilgan unvondan so'ng, an'anaviy madhiya bilan boshlanadi.

Sayyid Qosimiyning o'zi asarni Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul – asror” asarining erkin tarjimasini deydi. Haydar Xorazmiyning “ Maxzan ul – asror” dostoni tuzilishi hamda janr xususiyatiga ko'ra, Nizomiy Ganjaviy masnaviysiga juda yaqin turadi. Har ikkala doston ham falsafiy – ta'limiy mohiyat kasb etib, aruzning sa're bahrida yozilgan. Haydar Xorazmiyning dostoni Nizomiy Ganjaviy dostonidan hajman kichik. Doston 639 baytdan iborat bo'lib, 23 bobdan tashkil topgan. Asarning dastlabki 7 fasli an'anaviy muqaddimaviy boblardir. Dostonning asosiy qismi 16 bobni o'z ichiga oladi. Ularda ma'viza(pand – nasihat), maqolat va hikoyatlar mavjud. Haydar Xorazmiy Nizomiy Ganjaviydan farqli o'laroq, dostonda avval hikoyat, undan keyin shu hikoyatdan kelib chiqadigan xulosa va fikrlarni umumlashtiradi. Maqolat va hikoyatlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ularning ba'zilari o'xshash, ba'zilari tamoman yangidir. Ulardan farqli ravishda, Sayyid Qosimiy o'zining hikoyatlarida avval Sarsuxan (so'z boshi) dan keyin shunga mos hikoyat keltiriladi.

Sayyid Qosimiyning “Majma’ul- axbor” dostoni Sulton Abu Said Mirzo (1451 –1469) bag`ishlagan madhiyadan oldin an’anaviy boblar mavjud. Sayyid Qosimiy merosi tarkibidagi birinchi doston “ Majma’ ul-axbor” bo‘lib, bu asar shoir yashagan davr hukmdori Amir Temurning nabirasi Sulton Abu Sa‘id Mirzoga bag‘ishlangan. Doston ikki kirish va asosiy qismdan iborat. “Kirish” o‘z navbatida besh bobni o‘z ichiga oladi: Hamd (Xudoga bag‘ishlangan), na’t (Muhammad payg‘ambarga munajat), Kitobning yozilish sababi bobi, Sulton Abu Sa‘id Mirzoga bag‘ishlangan madhiya va Tamsil (misol). Asosiy qism o‘n sakkiz Sar Suxan (So‘z boshi) va har biriga keltirilgan bittadan o‘n sakkizta hikoyatdan iborat.

Sayyid Qosimiy o‘z davrining yetuk shoiri sifatida e’tirof etilishi lozim, bunga bir qancha sabablar bor. Avvalo, shoir o‘z davridagi an’anaviy yo‘nalish bo‘yicha asarni “ Xamsa” dostonlarining an’anasiga muvofiq, aruzning sare‘ bahrída yozadi. Ikkinchidan, shoir bu asarni yozishda Haydar Xorazmiyning “ Maxzan ul – asror” iga nazira tarzda yozdim – deya ta’kidlaydi. Ushbu asarni o‘rganishning dolzarbligi yana shundan iboratki, garchi an’anaviy yoki nazira tarzda yozilgan bo‘lsada, shoir o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda har bir hikoyatni bir so‘z boshi bilan mustahkamlaydi. Hikoyatlarning badiiyligi, so‘z o‘yinlarining va badiiy san’atlarning qo‘llanilishi shoirning yuksak iste‘dod egasi ekanligini isbotlaydi. Biz o‘rganmoqchi bo‘lgan Sayyid Qosimiyning “Majma’ ul – axbor” (Xabarlar majmui) asari –ushbu asar o‘z tarkibiga hamd, na’t, kitobning yozilish sababi, shoirning o‘z ahvoli haqidagi bayon, Sulton A‘zam Abu Said Mirzo madhiyasi va misol, “ Og‘ozí kitob” va “ Fi tamsil” bo‘limlari 18 ta hikoyat va shunga monand 18 ta sarsuxan (so‘zboshi) kiritilgan bo‘lib, XV asr xalq hayoti, shoirning ijtimoiy ahvoli, asarning yozilishiga sabab bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga oladi. Sayyid Qosimiy ijodining o‘rganilishi avvalo, B. Qosimxonovning“ Sayyid Qosimiyning adabiy didaktik dostonlari” , B. Qosimxonovning “Sayyid Qosimiy. Masnaviylar majmuasi” nomli asarida yaqindan tanishishimiz mumkin. Ushbu asari orqali Sayyid Qosimiy o‘z asari orqali xalq hayotini va o‘zining ma‘naviy,

moddiy ahvolini bayon qilar ekan, shoirning asari kech topilish sababini tushungandek bo‘lamiz.

Aynan o‘ziga xosliklardan biri shoir“ Og‘ozi kitob” bo‘limigacha o‘z taxallusini keltiradi. Bu ham shoirning o‘ziga xos uslubi deyish mumkin.

Asarning yozilish sababi va o‘z ahvoli bo‘limida shoir o‘z ahvolini shunday bayon etadi.

Ojizu bechoravu sargashtamen.

Xuni dilu diydag‘a og‘ushtamen.

Hamnafasim dardu dilu ohi sard,

Xuni jigar munisimu ro‘yi zard.

Asardagi hikoyatlarning mavzu ko‘lami, mazmundorligi jihatdan boshqa asrlarga o‘xshab ketsa-da ammo o‘ziga xos yo‘nalishi bor. Asarda shoir o‘z fikrini kitobxonga yetkazish uchun turli majoziy o‘xshatishlar, maqollar, she‘riy san‘atlar badiiyatidan foydalanadi.

Asar haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lish uchun, hikoyatlar mundarijasini havola etishni lozim topdik:

1. So‘zboshi ko‘ngil haqida bo‘lib, unga mos ravishda - “Hikoyati Ibrohim Payg‘ambar” ilova qilinadi.

2. So‘zboshi muruvvat haqida bo‘lib, unga mos ravishda -“Hikoyati Shayx Shibliy” ilova qilinadi.

3. So‘zboshi rostlik haqida bo‘lib, unga mos ravishda - So‘zboshi “Hikoyati Shayx Junayd” ilova qilinadi.

4. So‘zboshi haqida bo‘lib, unga mos ravishda - “Hikoyati Shayx Baxlul” ilova qilinadi.

5. So‘zboshi faqirlik haqida bo‘lib, unga mos ravishda - “Hikoyati Zohid va Fosiq” ilova qilinadi.

6. So‘zboshi xizmat haqida bo‘lib, unga mos ravishda - “Hikoyati Sulton Muhammad G‘oziy” ilova qilinadi.

7. So‘zboshi dunyoning bevafoqligi haqida bo‘lib, unga mos ravishda - “Hikoyati Shoh Jamshid” ilova qilinadi.

8. So‘zboshi mol – davlatning omonatligi haqida bo‘lib, unga mos ravishda - “Hikoyati Fariduni Farrux” ilova qilinadi.

9. So‘zboshi adolat haqida bo‘lib, unga mos ravishda - “Hikoyati Shoh Qubod” ilova qilinadi.

10. So‘zboshi tasavvuf ahli haqida bo‘lib, unga mos ravishda - “Rishta kasaliga muhtalo bo‘lgan shoh” ilova qilinadi.

11. So‘zboshi qanoat haqida bo‘lib, unga mos ravishda - “Hikoyati Sherutulki” ilova qilinadi.

12. So‘zboshi vafodorlik haqida bo‘lib, unga mos ravishda - “Hikoyati Xojayi Bozargon” ilova qilinadi.

13. So‘zboshi baxillik va xasad haqida bo‘lib, unga mos ravishda - “Hikoyati xoja va gado” ilova qilinadi.

14. So‘zboshi karam haqida bo‘lib, unga mos ravishda - “Hikoyati Podshohi Yaman” ilova qilinadi.

15. So‘zboshi tama’ haqida bo‘lib, unga mos ravishda - “Hikoyati Xorunar – Rashid va Abrobiy” ilova qilinadi.

16. So‘zboshi ishq haqida bo‘lib, unga mos ravishda - “Hikoyati Laylovu Majnun” ilova qilinadi.

17. So‘zboshi saxovat haqida bo‘lib, unga mos ravishda - “Hikoyati Porado‘z” ilova qilinadi.

18. So‘zboshi himmat haqida bo‘lib, unga mos ravishda - “Hikoyati Iskandar” hikoyatlari keltiriladi.

Shoir ularda asosan, ulug‘ shayxlar, ustozlar va mashhur qahramonlarga murojaat qiladi. Bu ham shoir ijodida alohidalik kasb etadi.

Asar kompozitsiyasining yana bir o‘ziga xos tomoni, undagi har bir sarsuxan oxirida aynan hikoyatning davomiga murojaat qilish uchun bitta bayt takrorlanadi:

Tolib ersang, naqlu rivoyotg‘a

Mustami‘o‘l ushbu hikoyotg‘a

deya hikoyatlarni bir – biriga bog‘lab ketadi.

Bu ham an'anaviy yo'nalish bo'lib, so'zboshi oxiridagi baytning takrorlanish holati Sayid Ahmadning "Taashshuqnoma" dostonida ham uchraydi. Ushbu dostonida "So'zning xulosasi" bo'limi oxirida quyidagi bayt takrorlanadi:

Tahammul yaxshi ishtur pesha qilmoq,
Taxayyul birla ham andesha qilmoq.

Ya'ni: Sabrdan yaxshi yo'qtur pesha qilsam,
Bu yo'lda sabr yo'q andesha qilsam – tarzda uchraydi.

Ushbu misra asarning ikkinchi so'zboshisining ikkinchi baytida quyidagicha uchraydi:

Sabru tahammul o'zingga pesha qil,
O'tti bu kun ertadin andesha qil,

Bu an'andan shoirning xabardorligi va tatabbu' qilishi, shoirning yuksak iste'dod egasi ekanligidan dalolat beradi.

Dostondagi hikoyalarni syujet va kompozitsiya jihatidan shartli ravishda ijtimoiy – siyosiy xarakterga ega bo'lgan hikoyalar, axloqiy – ta'limiy xarakterdagi hikoyalarga bo'lish mumkin. Sayyid Qosimiy hikoya janrini masnaviy yo'lda yozar ekan, o'zi yashab ijod etgan ijtimoiy hayotning muhim masalalarini yoritishda o'zi uchun ma'lum mavzular tanlab oldi va ularni asosli ravishda tanqid qildi. U asosan, o'sha davrda turli ijtimoiy qatlamga mansub kishilar – shohlar, davlat arboblari, olimlar, darvishlar, xalq qahramonlari va xalq og'zaki ijodida ko'ptalqin etilgan afsonaviy va tarixiy shaxslarni asosiy qahramon etib oldi. Ushbu qahramonlari orqali shoir o'sha davrda mavjud barcha salbiy illatlarini tanqid ostiga oldi.

"Majma' ul – axbor" asarining yaratilishi xamsanavislikdagi an'anaviy birinchi dostonlar tuzilishiga o'xshaydi, biroq shoir aynan Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul – asror" asarining ayni nusxasini emas, shu tipdagi asarlarning yana bir namunasini yaratishga erishdi. Sayyid Qosimiyning "Majma' ul – axbor" asarini

o‘rganar ekanmiz, asosan, pand – nasihat, xalq turmush tarzi, didaktika, ma’viza asosiy mavzu ekanligiga guvoh bo‘ldik. Bu esa, shoir o‘sha davr ijtimoiy hayotini yoritir ekan, uning mohiyatini ochishda alohida yo‘ldan borgani, o‘zidan oldingi salafarga ergashgan holda, Navoiygacha bo‘lgan davr xamsanavislarining ilk dostonlari tipidagi asarini yozdi.

II BOB

“MAJMA’ UL-AXBOR” DOSTONIDA AN’ANA VA BADIY MAHORAT.

2.1. “Majma’ ul-axbor” va xamsanavislik an’anasi.

“Majma’ul – axbor” asari. (Xabarlar to‘plami) Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul – asror” asaridan farqli o‘laroq hajmi 18 bobda jamlangan bo‘lsa - da, misralar soni ortiq - 2088 misra, «Maxzan ul-asror» 23 bobni o‘z ichiga oladi. Hajmi 1230 misra 615 bayt (ayrim manbalarda 639 bayt²⁰)dan iborat.

Bu doston uch tarkibiy qismdan tashkil topgan: muqaddima, asosiy qism va xotima. Muqaddimaning o‘zini shartli ravishda ikkiga bo‘lish mumkin. Birinchi muqaddima Alloh hamdi, payg‘ambar nat‘i, xalifalar ta’rifidan iborat. Ikkinchi muqaddima esa Sulton Iskandar madhi, musannifning vasfu – holi kabi masalalarga bag‘ishlangan. Ushbu muqaddima qism jami yetti bobni o‘z ichiga oladi.

Sayyid Qosimiyning “Majma’ ul – axbor” asari an’anaviy boblar 6 qismda o‘z aksini topadi. Bular: hamd, na’t, kitobning yozilish sababi, shoh ta’rifi, tamsil, og‘ozi kitob.

“Muborak maktublar” asariga Sayyid Qosimiyning “Haqiqatnoma” va “Sadoqatnoma” dostonlari kiritilgan bo‘lib, “Haqiqatnoma” dostonining hamd va na’t qismlarisiz munajat bo‘limining ikkinchi bayti bilan boshlangan. Bu holatni

²⁰Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyot tarixi. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006, 169-bet.

ko‘rib o‘tamiz: B. Qosimxonovning “Sayyid Qosimiy. Masnaviylar majmuasi”da Munojot bo‘limi:

Xudovando ba haqqi oli yosin,

Inoyat qilki bu da’vo eyasin

misralari bilan boshlanadi. “Muborak maktublar” da esa ikkinchi bayt quyidagicha:

Ki, turkiy birla nazm etsam kitobe,

Aning har harfi bo‘lsa fathi bobe

misrasi bilan boshlangan. Bu qo‘lyozmadagi xato emas, shuning uchun uni texnik xato desak tog‘ri bo‘ladi.

Asarni o‘rganish borasida “Navoiyning nigohi tushgan” asarida ham Sayyid Qosimiy haqida ma’lumotlar bor.

Haydar Xorazmiyning «Maxzan ul-asror» hamon’anaviy kirish va asosiy qismdan tuzilgan. Sayyid Qosimiyning “Majma’ul – axbor” asari an’anaviy Qur’onning «Bismilo» oyati bilan boshlanadi. Uning hajmi unchalik katta emas, 21 bayt – 42 misra.

Nizomiyning ham asari Qur’oning «Bismilo» oyatidan boshladi. Bu asarga nazira bitgan barcha shoirlar qatori Haydar ham asarini shu tarzda boshlaydi»²¹. Shu o‘rinda eng mashhur bir necha xamsalarning birinchi baytlarini keltirishni joiz deb bildik:

Haydar Xorazmiy:

Bismillohir-rahmonir-rahim,

Fathu zafar oyatidur ey hakim.

Ushbu oyat zafar keltiruvchi oyatdir, ey hakim, sen buni unutma, doim yodingda tut mazmunida boshlanadi.

Sayyid Qosimiy:

Bismillohir – rahmonir rahim,

²¹Abdullayev N. Haydar Xorazmiyning Nizomiy “M. ul-as” gamunosabati// O‘zbek til va adabiyoti. 1974, # 2, 146.

Fotihayi fath erur, ey hakim.

Ey hakim, duo o‘qilsa, yaxshi tilak tilansa, u albatta g‘alaba keltiradi mazmunidagi misra bilan boshlanadi. Sayyid Qosimiy bu misrani aynan takrorlamaydi, balki unga yangicha mazmun olib kirishga harakat qiladi.

Alisher Navoiy o‘z “ Xamsa” sini quyidagi misralar bilan boshlaydi:

Bismillohir-rahmonir-rahim,

Rishtag‘a chekti necha duri yatim.


Navoiy o‘zidan oldingi salaflardan farqli ravishda “ey hakim” ni takrorlamaydi va keying misralarda ham uning mazmunini ushlab turadi. Bu yo‘nalishga ko‘plab misollar keltirish mumkin, Sayyid Qosimiy ham an‘anaviylikni yangicha mazmunda ochishga harakat qiladi.

Bu an‘anaviy yo‘nalish bo‘lib, Sayyid Qosimiy ham ushbu an‘anaga sodiq qolgan holda asarni falsafiy va ijtimoiy fikrlar bilan boyitadi. Haydar Xorazmiy Nizomiy Ganjaviydan farqli o‘laroq, dostonida avval hikoyat, undan so‘ng shu hikoyadan kelib chiqadigan xulosa va fikrlarni mav‘iza shaklida bayon etadi, ma‘lum bir masala yuzasidan falsafiy qarashlari hikoyatlarda o‘z aksini topgan.

Sayyid Qosimiy ham o‘ziga xos yo‘nalishdan borib, hikoyatlarni alohida sarsuxan (so‘zboshi) lar bilan bezaydi. Shunga mos ravishda hikoyat ham keltiradi.

Sayyid Qosimiy “Majma’ ul – axbor” asarini kompozitsiyasi esa, Haydar Xorazmiy asaridan farqli ravishda an‘anaviy boblardan: hamd, na‘t, kitobning yozilish sababi, shoh ta‘rifi, tamsil, og‘ozi kitob bo‘limidan so‘ng:

Sarsuxan



Hikoyat

ko‘rinishdagi 18 ta sarsuxan va 18 hikoyatdan tashkil topgan.

Haydar Xorazmiyning “ Maxzan ul - asror” asarida “ Musannifning vasfu holi” bo‘limidagi o‘xshashliklar quyidagicha:

Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul - asror” ida :

Bir kecha g‘am birla edim hamnafas,
Munisu damsozim ul erdiyu bas.
Ko‘z yoshidin - boda, bag‘irdin – kabob,
Dardu – dilim – nuqlu, fig‘onim – rubob.

Sayyid Qosimiyning “Majma’ ul – axbor” asarida :

Hamnafasim dardi dil erdiyu bas,
Andin o‘gun yo‘q edi faryodras.

Ohim erur nuqlu sirishkim – sharob,
Hasratu g‘am o‘tina bag‘rim kabob.

Shoir o‘z asarida ko‘plabo‘rinlarda o‘zidan oldingi salaflarga murojaat qilgan, biroq qaysi misra bo‘lmasin unga o‘zining yondashuv va poetik mahoratini kirita olgan. She‘riy asar yozishan‘anasi XIV – XV asr turkiy adabiyotda o‘zining avj nuqtasida edi, shu sabab shoirning barcha merosi masnaviy shaklida bo‘lib, bu yo‘nalishda ijod qilish murakkab hisoblanardi. Shoirning mahorati misralardagi tashbehlar, so‘zo‘yinlari va xalq og‘zaki poetik ijodining ham ta‘sirini ifodalab berganida ko‘rinadi.

Sayyid Qosimiyning an‘anaga amal qilishi quyidagilarda ko‘zga tashlandi

“Majma’ ul – axbor” qilay otini,

“Maxzan ul - asror” deyin zotini.

Bu holat Navoiyda ham mavjud:

Hayroti abror ko‘rib zotini,

“Hayrat ul – abror” dedim otini.

Aynan shu holatda Navoiyning Sayyid Qosimiydan keyin yashaganligini hisobga olsak, bu an‘anadan har ikkala shoir ham xabardorligini bilib olish qiyin emas.

Shu jihatdan Haydar Xorazmiyning «Maxzan ul-asror» dostoni falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-taʼlimiy qarashlarini bayon etish, kishilarga taʼlim va oʻgit berish maqsadini qisqaroq shaklda bayon etgan boʻsa, Sayyid Qosimiyning asarida kengroq tarzda namoyon etilgan. Bu oʻz navbatida uning kompozitsiyaga ham oʻz taʼsirini koʻrsatgan. «Majmaʼ ul – axbor» asarini Haydar Xorazmiy asarining aynan tarjimasi deya olmaymiz. «Majmaʼ ul – axbor» dostonida shoir oʻz mahoratini namoyon etishda anʼanaviy obrazlarga ham yangi sifatlarni yuklash orqali alohida yoʻl tutadi. Bunda shoir hikoyatlarni gʻoyaviy taʼsirini oshirishda qahramonlarni turli holatlarda koʻrsatib beradi. Misralarning takrori bu xalq ogʻzaki ijodidagi oʻynoqilikni saqlab qolish maqsadida olib borilganyana bitta usul deyish mumkin.

Xamsachilik anʼanasiga koʻra birinchi dostonlar pand-nasihat ruhida yoziladi. Bundan tashqari birinchi dostonlar dom aruzning sareʼ bahrida yozilishi qatʼiy anʼana hisoblanadi. Barchamizga maʼlumki, aruzning sareʼ matvii makshuf vazn oʻlchovi Nizomiy dostoniga javoban yaratilgan barcha dostonlar uchun asosiy mezon hisoblangan.

Muf-ta-i-lun / muf-ta-i-lun/ fo-i-lun.

Sayyid Qosimiyning «Majmaʼ ul – axbor» asari ham aruzning sareʼ bahrida yozilgan, B.Qosimxonovning «Саййид Касими и его литературно-дидактические поэмы.Авторефераткандидатанаук» – avtoreferatida «Majmaʼ ul – axbor» dostoning vazni aniq keltirilmagan.

Mus –taf –i – lun/mus – taf – i- lun/ muf –ta –i –lun [21]

tarzda deya misollar keltiradi. Biroq, bu vazn qolipi sareʼ bahrining taqteʼsi emas.

Shunga koʻra uni hajman kichik boʻlsada «Xamsa» tarkibidagi ilk dostonlar kabi xamsachilik anʼanasiga koʻra yozilgan deyishimiz mumkin. Bu asarni topilish tarixida ham qoʻlyozmaning 29 beti yoʻq ekanini hisobga olsak, uning tarkibida yana bir doston mavjud boʻlsa, demak dostonlar soni 5 taga yetar edi va biz uni kichik xamsa deya olar edik. Mavzudagi dolzarblik ham asarlarning chuqur tahlil talab ekanini koʻrsatadi.

Nizomiy Ganjaviyning «Maxzan ul-asror» dostoni shakliy tuzilishi haqida adabiyotshunos olim M.Muhiddinov «Komil inson adabiyot ideali» asarida ilmiy adabiyotlarda «Kirish boblar» deb ataluvchi qism bo'yicha quyidagicha fikrlarni bildirib o'tgan: ...Asarning uchdan bir qismini tashkil etuvchi o'n sakkiz bob «muqaddima» bo'lishi mumkin emas. Bu ibora o'rniga mazkur boblarni dostonning birinchi qismi – dunyoqarash qismi deb nomlashni tavsiya etamiz. Zero, aynan shu boblarda muallifning dunyoga va odamlarga munosabati, falsafiy tushunchalari, diniy e'tiqod-u iymoni ayonlashadi. Muallifning islomiy ahkom asosidagi o'y-fikrlari, muhabbat, dil izhori, ifodalangan bo'ladi. Bu qism boblarini birlashtiruvchi xususiyat –vasf, ta'rif va o'zini izhor etish. Bunda keng muhokama, ob'ektiv va tanqidiy munosabat deyarli uchramaydi»²²

Sayyid Qosimiy o'z dostonida xamsachilik an'anasiga mos ravishda ulug' insonlar va ustozlarga murojaat qiladi. Ushbu hikoyatlarning biri “Sulton Muhammad G'oziy” da shoiro'z davrining dongdor shohi Sulton Muhammad G'aznaviyga bir hikoyatni bag'ishlaydi. Hikoyatda an'anaviy obrazlar G'aznaviy va uning sodiq mahrami Ayozi asosiy obraz bo'lib kelgan. Hikoyatda Mahmud G'aznaviy (998 – 1030) va uning xos mahrami, quli Ayozi – Abu Najm (1057 – yilda vafot etgan) asosiy qahramonlar hisoblanadi. Uning asosiy g'oyasibidan Sarsuxan bobida tanishtiriladi. Inson bu hayotda yashash uchun kurashadi. Bu hayot qonuniyati unda har kimo'zo'rnini topmoqchi bo'ladi, kimdir bu holatga yetishadi, kimdir esa yo'q. Odamlar xizmati bilan pirga yetadi. Bu jahonda xizmat qilmagan odam nima qiladi? Ertayu – kech xizmat qilib ko'zingni och. Xalq oldida mo'tabar bo'lasan. Hech lahza uning (Ollohning) xizmatidan malollanma. Kim shunday qilsa, najot yo'li qabul bo'ladi. Uning quli bo'lishni kim ixtiyor qilsa, o'zga bilan o'zganing hech nima borasida ishi bo'lmaydi – degan umumiy fikrlardan so'ng, asosiy mavzuga o'tiladi. Hikoyatning mazmuni bilan tanishamiz:

²²Muhiddinov M. Komil inson adabiyot ideali. –T.: Ma'naviyat, 2008 y, 84 b.

Gʻaznaviydan nima uchun Ayozi bunchalik yaxshi koʻrishini soʻrashganda, U shunday javob beradi:

Bir qator tuyalar kelar edi, ustiga dur toʻldirilgan sandiq yuklangan edi. Shoh ishora qildi va dediki: Sipohlari dur – javohirlarni talashsin. Xalqning barchasi parokanda boʻldi, ularning hammasi duru gavhar orzusida edi. Shohning oldida Ayozi boshqa hech kim qolmadi. Unga shoh dedi: Ey, sarfarozi – ulugʻvor sen nima uchun xalq bilan birga ketmading? Dur va javohirlardan ulush olmading. Ayozi aytdi: “Men xizmatda mashgʻul edim, xizmat bilan kishi davlatga yetadi. Tilimning vazifasi sening sifatingni aytish edi. Zoting men uchun duru – javohir edi. Qul agar begidan uzoq tursa, tirikligidan oʻlgani yaxshiroq. Kimki, hazrati sultonning koʻngliga yoʻl topsa, uning nigohidan ham izzat topsa boʻladi. Agar bir lahza xudo yodidan chiqsa, tariqat bobida avliyo boʻlolmaydi. Kimki xudoning yodi bilan mudom yashasa, erta- yu kech davlatu izzatda yashaydi. Davlat va boyligimiz uning yodi bilan, agar yoʻq boʻlsa oyogʻimizning holi oʻzingga maʼlum. Sodiqlik talabi har kishiga yor boʻlsa, uni maqsadi nima boʻlsa ham topadi. Kimki tavakkallik bilan yoʻlga qadam qoʻysa, Xudoning iltifoti uning rahbari boʻladi. Agar Ollohning xudovandi boʻlishni tilasang, mendan chinlik bilan bu pandni eshit. Qosimiy hazratni qoʻllovchisi boʻl. Faqru- qanoatni ixtiyor qil – deya hikoyatni yakunlaydi.

Hikoyatdagi asosiy gʻoya har qanday insonni komillikka erishishi uchun nafsni jilovlash va toʻgʻri amallar qilishi lozimligini uqtiradi. Ushbu hikoyat ham yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi, yaʼni shoir shoh va uning xizmatchisi munosabatida rostgoʻylik, sirdoshlik, oʻz podshohiga sodiqlik bilan xizmat qilgan kishiga Ollohning oʻzi mukofot beradi, unga iqtisodiy foyda emas, shohning muhabbati maʼnaviy mukofotdir degan gʻoya orqali oʻz hayot yoʻlidan olgan xulosalarini bayon etadi. Asardagi barcha hikoyatlarda gʻoyalar bir – biri bilan uzviy bogʻliq, ularning gʻoyaviy mundarijasida shoirning oʻsha zamon ahliga va podshohlarga adolatli boʻlishni, xalqning hayotini oʻylashni uqtirishni maqsad qiladi. Bu hikoyatdagi qahramonlar Sulton Mahmud Gʻaznaviy va uning quli Ayozi obrazi anʼanaviy hikoyatlar qahramoni hisoblanib, Alisher Navoiyning “Lison ut –

tayr” dostoni yakunidagi “Tavhid yo‘li asosidagi munojot” ga keltirilgan Tamsil – misol bo‘limida uchratamiz. Unda shoh G‘aznaviy va Ayoziyning “men” va “sen”lik borasidagi suhbatlari o‘rin olgan bo‘lib, hikoyatga tasavvufiy ma’noyuklatilgan. Har ikkala hikoyatdagi G‘aznaviy va Ayoziy an’anaviy obrazlar bo‘lib, Sayyid Qosimiy bu obrazlarni o‘z qahramonlari sifatida olishi, o‘sha davr adabiy muhitidan yaxshigina xabardor ekanini bildiradi.

Sayyid Qosimiy o‘zining bu to‘rt dostoni bilan, didaktik, pand – nasihat ruhida asar yozar ekan, u davr, muhit, podshohlar va oddiy xalq hayotini qiyoslashni she’riy asar orqali yetkazishni maqsad qilib qo‘yadi. Haydar Xorazmiy dostonidagi “Hotami Toy” hikoyatida saxovat ulug‘lanadi. Karvondagilar va Hotami Toy munozarasi hikoyatda mahorat bilan ochib beriladi. Unda bir xil tuya keltirishganda, Hotami Toy sahovatidan qolganlar izza chekib qoladilar. Ma’vizadagi baytlarda inson komillikka erishuvi uchun xavfli dushman bo‘lgan nafs bilan doimo murosasiz bo‘lishga chorlaydi.

Yarim oyoq oshki, toparsen nasib,

Yarmini berki yesin bir g‘arib.

Me’da tamug‘ikim erur dushmaning,

Qonmag‘usidir agar ichsa qoning.

Xorazmiy bu obrazga butunlay boshqacha yondoshsa, Sayyid Qosimiy ham o‘ziga xos yo‘nalishda yondashadi: Hotami Toy hikoyati “Hikoyati podshohi Yaman” nomli hikoya ostida beriladi. Hikoyatlarda shoir aynan Haydar Xorazmiydan o‘xshashlik keltirmaydi, chunki bu uning o‘ziga xoslik va alohida yo‘nalish, uslubi hisoblanadi. Hikoyatda Yaman podshosi xalqning farovonligi yo‘lida borini ayamaydigan holda gavgdalanadi, biroq u o‘zidan am sahovatliroq inson borligini eshitgach, uni yo‘q qilish maqsadida bir yigitni yollab shoh huzuriga yuboradi. Yigitning maqsadini tushungan Hotami Toy unga shunday deydi: Hotami Toy so‘rg‘anidan angladi,

Lutfu muruvvatda o‘zin chog‘ladi.

Aytdi anga Hotami Toy : - Vayig‘,

Bobi muruvvatdin emas jon darig‘.

Har naki ko‘nglung tilasa andoq et,

Qilma tavaqquf boshimi kes – da ket.

Hotami Toyning bunday javobidan yigit aqli shoshib, yero‘pib undan uzr so‘raydi. U Yaman shohi huzuriga xursand kayfiyatda borib, shoh haqida iliq so‘zlar aytadi. Shoh bo‘lgan voqeadan xabar topgach, yovuz niyati uchun xijolatda qoladi. Alisher Navoiyning “Hayrat ul – abror” dostonida “Hotami Toy va o‘tinchi chol” hikoyati beshinchi maqolatda beriladi. Asosan, saxovatni bosh g‘oya sifatida oladi. Hotam – musulmon dunyosida saxovat timsoli. U haqida behisob asarlar yaratilgan. Kunlardan birida Hotamning suhbatdoshlaridan biri “dunyoda o‘zingdan ham himmatliroq odamni ko‘rdingmi?” – deb so‘raganda, u javob beradi:

Dediki: “ Bir kun qilibon jashni om,

Indab edim bodiya ahlin tamom.

Matbax aro yuz teva qurbon edi,

Qo‘y – u qo‘zi behad – u poyon edi.

Bazm ichidin dahst sori bir nafas,

Kasbi havo aylamak ettim havas.

Sayrda ko‘rdum bir asiri mihan,

Bir quchoq orqasig‘a yuklab tikan.

Shakllangan an‘anaga muvofiq haftaning muayyan kunlarining birida nochor –u nokom, beva- yu bechoralar Hotamning hovlisiga yig‘ilishib, uning uyida taom tanovvul qilishar edi. Hotamning ko‘ngli yolg‘izlik tusab, hovli orqasiga o‘tib qarasaki, bir chol o‘tin yuklab kelar edi, shunday munkillagan ediki, u dastlab Hotamning ko‘ziga to‘rt oyoqli jonivorday bo‘lib ko‘rindi. Yaqinlashgach, undan

nega Hotamning uyiga borib, gulshani izzatlikka yetmading deb so‘raganda, chol uni tanimay:

Sen dog‘i chekkil bu tikan mehnatin,
Tortmag‘il Hotam Toy minnatin.
Bir diram olmoq chekibon dast ranj,
Yaxshiroq andinki birov bersa ganj -
deb javob beradi.

Hotami Toy:

Ulki bu yanglig‘ so‘zi mavzun edi,
Mendin aning himmati afzun edi
deya uning xijolatli holatini namoyon etadi.

Ilk dostonlar pand – nasihat va misol yo‘nalishida olib borilgani uchun Sayyid Qosimiy asarning 14 – so‘zboshi, karam haqidagi bo‘limda, mumtoz adabiyotda sahovat ramzi bo‘lgan Hotami Toy obraziga shoir to‘xtalib o‘tar ekan, uning bu hislatini ochib berish uchun obrazni yangicha qiyofada ochib berishga harakat qiladi. Hotami Toy obrazini mehr–muruvvat bobida alohida gavdalantirgan shoirni badiiy mahorat egasi deyish mumkin.

2.2“Majma’ ul-axbor”dagi maqolotlarning mavzu rang-barangligi va g‘oyaviy mundarijasi.

“Majma’ul – axbor” -Xabarlar to‘plamiasarining ilk boshlanish qismi Oллоhga hamd bilan boshlanadi. Asar so‘zboshilarining qurilishi ham o‘ziga xos, yaxlit sujet chizig‘i yo‘q. Shoirni hikmategasi, uning tufayliyu – kunlari ravon bo‘lishi, umuman, barcha tabiatlami uning bilan tirikligini aytib o‘tgach, uni mo‘jizaviy Iso payg‘ambarga qanday sifatlar berganini ta’kidlaydi.

Bo‘ldi esa kufri zalolat qaviy,
Qildi ayon mo‘jizayi Isaviy.

Yoki,

Qildi Muhammadni rusul hotami
Yetdi aziz oning uchun odamiy (10 – bet)

degan sifatlar bilan ulug‘lar ekan, o‘z navbatida u tufayli hamma narsa mavjudligini eslatib o‘tadi.

Bo‘lmasa ul payravi bu nafsi dun,

Qilsa alif qaddini toatda nun.

Ushbu misrada badiiy san‘at qo‘llangan bo‘lib, nafsning baland kelishialifni (ئ) nun (ن) ya‘ni, qaddiqomatni egib qo‘yishi, faqru – fanodengizidan afsu havoodamniyo‘ldan ozdiradi degan fikrlarni ilgari suradi. Bu misrada *kitobatsan*‘ati qo‘llangan bo‘lib, bu san‘at arab alifbosi shaklidan lirik va epik timsollar yaratishda foydalanish san‘ati bo‘lib, XIV asr oxiri XV asr boshlarida shakllangan janr hisoblanadi.²³

Shundan so‘ng tasavvufiy atamalar bilan shoir Ollohga murojaat qiladi. Talab yo‘li mashaqqatligini eslatgach, keying misrada:

Nafsu – havoodamini **ozdurur**,

Nafsu havotarkineta **roz durur**

Bu misrada tajnis san‘atining go‘zal namunasini kuzatishimiz mumkin, so‘z o‘yini qo‘llashda shoirning mahorati yuzaga chiqqan. Ya‘ni birinchi tajnisli so‘z ma‘nosi **ozdurur** – ozdiradi, ya‘ni nafsning qurboni bo‘lish insonga yaxshilik keltirmasligi; **oz durur** – kam, oz ma‘nosida bu yo‘lni tark etuvchilar kamchilikni tashkil qiladi – degan mazmunli fikrni baytda ixcham tarzda ifodalay olgan.

Shoir ijtimoiy- falsafiy mavzudagi fikrlaridan so‘ng, o‘z ahvoli, turmush tarzini yoritishga o‘tadi, hasbu–hol mavzudagi misralar bilan bo‘limni yakunlaydi:

Muztarudarmondavubechoradur.

Ojizudilxastavug‘amxoradur.

Keyingibo‘lim	Payg‘ambarga	na‘t
qismidashoiruniulug‘laydi: Ey qadamlariko‘zga		nur beruvchizot,
seningyodingko‘ngillargahuzurbag‘ishlaydi. Sen Haqbilanyaqin		eding,
dunyodaruhol	–	aminsensan
		degan

²³ Хожирахмедов. А. Мумтоз бадийат малохати. Т. Шарк. 1999 – 238 б.

mazmunli maqto'vlar bilan boshlanadi. Olamning yaratilishi vujudlarga jon berishining ham sababchisi, himmatingdan olamyasharadi kabi sifatlar bilan

Kavnu makon komili sensen, bale

Jonu jahon hosili, sensen, bale. (o'sha asar 12 bet)

Ushbu misrada *muvozana* san'ati qo'llangan, ushbu san'at "vazn (o'lchov) jihatidan tengdoshlik" degan ma'noni bildiradi.

Jamiyki olam ahligasen podsho, hammarasullar bir
tomondasen peshvosandeyata'riflaydi. Ta'rifni davom ettirib,
senlutf qilsang ilm borasida senga hech kim yetolmaydi, deydi.
Sening ko'ngling mehru-vafomaskani, joningsodiqlarning mahzanikabi sifatlar bilan
ulug'laydi. Seni Olloh choryorlar ichidan tanladi,
sendano'zganiganday rahnamodey manaxir, Ollohseni habibim debturgan bo'lsa,
deyamaqto'vlarkeltiradi. Ko'pkishilardabuhavasboredi,
bu inoyatsenganasibqildi. Sengapayg'ambar zotini berdi. Sarvdek qaddingning soyasite
gsajon atoetadi. Kimdakin, sengalofdan muhabbatura, u
faqirlar orasida qanoat qilgan hisoblanadi, - deydi. Bu bo'limda ham hasbu-
holbaytlar mavjud bular:

Qosimiyg'ako'zuchindin qilnazar,

Bandangerur qilmaonidarbada

misrasi umumiy asar hajmida o'xshash takrorlar tarzida keladi. Bu xalq og'zaki ijodi an'anasi hisoblanib, birinchidan asar ohangini oshiradi, ikkinchidan, o'quvchini e'tiborini tortadi.

Hazrat izzatda ongabo'lshaf'i,

Ondin agar kelsa xisolishan'i

misrasidan so'ng, na't qism yakunlanadi.

Ushbu misralardan so'ngasarning keying
bobi "Darsababinazmikitobvasharhiahvolixud"
(Kitobning yozilish sababivashoirningo'zahvoli haqidagi bayon) boshlanadi.

Marhamating birla, sen ey beniyoz,

Jonu ko'ngil dardiga bo'l chorasoz.

Sening marhamating birla jon va ko'ngillarning dardiga chora topildi. Gunohlarim ko'p, savoblarim oz savol javob vaqtida qay holatda bo'laman deb, zohir va botin haqidagi fikrlarini bayon etadi. Bu bo'limda asosan, hasbu – hol ko'rinishidagi misralar ko'proq uchraydi:

Voy, netay ushbu g'amu dard ila,

Qayda boray rangi ruhi zard ila.

Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul - asror" asarida "Musannifning vasfu holi" bo'limidagi o'xshashliklar quyidagicha:

Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul - asror" ida :

Bir kecha g'am birla edim hamnafas,

Munisu damsozim ul erdiyu bas.

Ko'z yoshidin boda, bag'irdin kabob,

Durdi – dilim nuqlu, fig'onim rubob.

Sayyid Qosimiyning " Majma' ul – axbor" asarida :

Hamnafasim dardi dil erdiyu bas,

Andin o'gun yo'q edi faryodras.

Ohim erur nuqlu sirishkim – sharob,

Hasratu g'am o'tina bag'rim kabob.

Hozir ojiz, bechora va sargashta ahvoldaman dilim qon, ko'z yoshim bilan oshnoman, hamnafasim dilim dardi, sovuq ohidan jigarimning qoni sariq bo'ldi. Yegan ichganim dard va g'am, hasrat va mehnat ham hech kam emas. G'amning tig'idan siynam guldek chok bo'ldi. Pok muhabbato'tida ko'nglim yondi. Ushbu dardlardan, g'amdan nima qilay, sariq yuz bilan qayerga boray? Agar mag'firating madadkor bo'lmasa, bizning chora tadbirimizning foydasi yo'q. Agar sahovating menga hamdam bo'lsa, oxirat dunyosida mening g'amim yo'q degan xolisona

niyatini bayon qiladi. Rasulning ruhi meni himoya qilsa, niyozimni qabul etsa bu ma'nodurlarini olamga sochaman deya, - o'z oldiga ulkan vazifa qo'yayotganini bayon qiladi.

Yaxshi so'zum dunyida qilsun zuhur,

Topsun aning lazzatidan jon huzur.

Muhabbat ahliga jon ruhi, hasta ko'ngilning shodligi bo'ladi. Insonlar bu gavhar qimmatini qayerdan bilsin—agar ko'nglida yaxshi niyat bo'lmasa. O'zgalardan sirimni bilguchi dilim menga chorasozning ham qayerdaligini biladi. Kimki, mening so'zlarim mohiyatini bilsa, menga go'yo Xumo soya solganligini biladi. So'z bilan kishining izzati ortadi.

Haydar agar berdisa so'z dodini,

Jumla jahon aylar oning yodini.

Haydar Xorazmiyning so'z ustasi ekanligini, bu tufayli uning nomi jahon xalqlari orasida abadiy qolishi haqida so'zlagach, o'z kitobini uning asariga javob tarzda yozganini aytib o'tadi.

Shoir ushbu bo'limda yana: Menda bu kitobni yozishga xavas bor edi, Xudoga shukurki, men unga yo'l topdim - shohning madhini yozish sabab bo'lib, uning nomiga kitob bitish fikri tug'ildi – deya, ustozlari va podshohga sifatlar keltiradi. Shayx Nizomiyning nafasini yod etib, uning haqqiga duolar qilib ruhini shod etib, ularning yo'idan boraman. Hikoyatlarni she'riy usulda yozib,, rivoyatlarni hammasini jamlayman, so'zlarimni bob – bob qilmayman, chunki bu kitobning yozilishi o'zgacha usulda bo'ladi – deya asarning tuzilishi haqida ham eslatadi.

Uning otini “ Majma' ul – axbor” deb nomlayman, kelib chiqish zotini esa, “Maxzani asror” deya Nizomiy va Haydar Xorazmiylarning asariga ishora berib o'tadi. Necha bayt aytsam ham unda latif, nozik, chiroyli va bag'oyat zarif so'zlarni aytaman. Ma'nosi rangin, so'zlarim dardnok bo'lsa ham ilhom mening pok san'atimdir, bu san'atning bahosini asarimni o'qisang, uqasan mazmunidagi misralar bilan davom ettiradi.

Jahon xalqiga yodgor qolsa bas, hayot yo'lida men tufayli biror yaxshi holat yuz bersa, meni biror narsaga da'vogar dema, ko'ngillarga so'zim qabul bo'lsa shu kifoya mazmunidagi baytlari bor.

Sayyid Qosimiyning “ Majma' ul – axbor” asarida :

So'zda kerak albatta bu turlu hol,
Bo'lsa qabuli dili ahli kamol.

Haydar Xorazmiyning “ Maxzan ul - asror” ida:

So'zda kerak ma'niyu ma'nida zavq,
So'zlaguvchida so'z uchun dardu shavq.

Kambag'allikdan kishini hech narsasi yo'q deb o'ylash kerak emas, kishining so'zidan ham qandayligini bilish mumkin. dilimda so'zlovchi dardlarim bor edi ularni so'z bilan ochib berdim. So'zlarim ichida xatolarim ko'p bo'lsa, Ey karami keng meni kechir deb Oллоhga murojaat qiladi.

Qosimiyning dardmand so'zlarini eshit, uning bu so'zlarini faqat foyda uchun deb o'ylama deya ta'kidlaydi. Bu esa shoirning ayni o'ziga xos ma'vizasi deyish mumkin. Shoir hamma fikrlarini asoslashga urinishda o'ziga xos yo'l tutgan.

Kitobning yozilish sababi bo'limidan so'ng, Sulton A'zam Sulton Abu Sa'id madhi bo'limi boshlanadi. Ushbu bo'limda shoir uni turli sifatlarini ochib berishga harakat qiladi. jumladan, uni barcha hunarlar egasi, eron shohlaridan ham yuksak, jahon egasi bo'lishga arzishi, tariqat ahli–yu kambag'alga birdek muomalada bo'lishini yuksak ta'riflaydi.

Hamnafasim dardu dil erdiyubas,
Andin o'gun yo'q edi faryodras.

Ushbu misralar bilan boshlangan ta'rifu tavsiflarda faqat Abu Sa'id Mirzo ulug'lanadi.

Yoru diyorlar g'amidan ozod edim, qunju- qanoatni ixtiyor qildim.
Hamnafasim dilimning dardi edi, undan boshqa birov mening faryodimni
tushunmasdi. Dunyosida menga undanbo'lak g'am - shodlik yo'q edi. Mening
hamdamim dilni kuydiruvchi nola, doim xasrat degan g'am – deya o'z holini shoh
tilidan bayon etadi.

Mehnati ayyom menga g'amgusor,
G'ussa bila dardu balo yori g'or.

Ushbu misradagi “yori g'or” bu Talmeh san'ati bo'lib, uning ta'rifi
quyidagicha: Yori G'or – bu Abu Bakr Siddiq bo'lib, u payg'ambarni kofirlar
quvib kelganda g'orga Muhammad bilan kirgan – ya'nig'orda ham u bilan birga
bo'lgan deyiladi. Bu misrada ushbu sifatlash g'ussa bilan g'amga yuklangan
bo'lib, ular menga shunday hamdam edi deyiladi. Dard va g'am besh jihatimni
o'rab olgan edi shu niyatga bel bog'lagan edim, yo'qlik yo'lga ketishni ixtiyor
qilgan paytda qulog'iga qa'ridannogoh bir nido ovoz keldi “Ey g'arib, sen
go'shayi mehnatdasen mashaqqat degan yo'ldasan, qachongacha bunday iztirobda
bo'lasan, gul kabi xor bo'lma, Xudoning hamdi birla ravon tilingni ochib,
shahanshohning madhiga belingni bog'la” –degan ovoz keldi. U muruvvat
tog'ining podshohining bo'z oti falak osmonida uchqur otiga o'xshaydi. Himmating
oldida Hotam Toyning ehsoni ham kichik bo'lib qoladi.

Xusravu Iskandaru Dorohasham,
Jumla jahon hukminadur yakqalam.
Nosiri din, mulk eyasi bu Sa'id,
Davlatidin elga turur kunda iyd.

Yoki yana bir o'rinda uni:

Ganji Faridun bila Mulki Ajam,
Kelmas aning xotirig'a javcha ham.
Adl ichida No'shiravondur o'zi,
Bo'ldi yaqin no'shi ravondurso'zi,

deya shohning ta'rifi davom ettiradi.

Shohni u shunday ulug‘ inson sifatida gavdalandiradi. Ilm va farosatda benazir, baxti - yigitnikiday, aqli keksalarnikiday, tajribalidir. Oллоh nuri oldida uning oy yuzi zohir bo‘ladi. Bu shunday ravshan bo‘ladiki, imtihon shart emas.

Jonu dili–sevgan ishi Oллоhning lutfi, toat va adl esa uning ikki guvohi hisoblanadi. Uning qomati jannatda yurgandek, dargohi–dorisalom gulbog‘i bo‘lgan. Mo‘jizasi go‘yo Isoning damida oshkor bo‘ladi. Adolatidan xalqi uni faxr qilib, har damda uning haqiga duo o‘qiydi. U Rum va Chin hukmdori bo‘lishga ham arziydi.

Qilsa dame xotiri azmi masof,

Haybatidin kohe bo‘lur Ko‘hi Qof.

Ushbu misrada agar, u safarni orzu qilsa, uning haybatidan Ko‘hi Qof somondek bo‘ladi – degan mazmun kelib chiqadi. Abu Sa‘id mirzoni ta’riflar ekan, uning barcha sifat va xususiyatlarini o‘zgacha holatda shakllantirishga harakat qiladi.

Shoh madhini davom ettirib, shoir uning zamonida bo‘ri va qo‘y do‘st, tulki sherga jiyandek qarindosh, kiyiklar ham bemalol sher bilan hamnafas bo‘lgani haqida, ya’ni bularning hammasiga sababchi sening adolatingdir- degan xulosalarni keltiradi. Uni din peshvosi, boy va kambag‘al munosabatini yo‘lga qo‘ygani, adolati tufayli bozorda tarozining ham aniq qo‘yilgani, hammasi xalq uchunligini aytib shohning sifatlarini yuksaklarga ko‘taradi.

Hosidi hasratda kuyar misli ud,

Change rubob oldida aylar sujud.

Ul kishidur ud bila qonun qilur,

Ko‘p kishini aqlini majnun qilur.

Qildi qo‘buz barcha so‘zin ixtisor,

Ayta turur madhi shahi komkor.

Shoir ta’rificha xatto cholg‘u asboblari ham uning vasfini kuylashga xizmat qiladi. Uni dengizdek kuchli, g‘alaba va zafar doim uning hamroxi ekani, barcha hunarlarda mislsiz ekanini, tariqat ahlini sevishini ham misralarida ta’kidlab o‘tadi.

Jahonda ertayu- kech hayot bo'lar ekan, u ro'zg'orning charxu-falak bo'lib aylanishiga o'xshaydi. Tangri uning yoshini uzun qilsin, shodlik va zafar unga yo'ldosh, baxtu – saodat bilan qarindosh bo'lsin. Ruhul – amindek hazrat unga yordamchidir. Agar menga vaqt inoyat ehson qilsa, hotamlilik davlati uning bilan tamom bo'ladi.

Bandadin ar kelsa xatovu gunoh,
Lutf ila andin kechurur podshoh.
Qosimiydir mo'ri zaifu nahif,
Qahr Sulaymonig'a emas harif.
Begu begot hech kim aytmas so'zin,
Xoki mazallatta qo'yib ul yuzin.
Sidqu irodat bila yo'ndi qalam,
Harnaki maqsud edi urdi raqam.

Abu Sa'id Mirzo ta'rifi shu misralar bilan yakun topadi. Shoir asarini unga bag'ishlash bilan bir qatorda, o'z asari orqali o'sha davr ijtimoiy hayoti, xalqning turmush tarzi, o'zining yashash sharoitini ham misralari orqali ifodalaydi. Shoh qanday bo'lishi lozimligi, shoirdan xato o'tgan bo'lsa, uni kechirishini ham so'rab, yana o'zini chumolidek zaif ekani, Sulaymon qahriga sherik emasligini aytib o'tadi, unga chin muridlik yo'lida qalam urgani va oz bo'lsada maqsadiga erishgani ta'kidlanadi.

Sulton Abu Sa'id Mirzo ta'rifidan so'ng Fi tamsil – Misol keltirish bo'limi boshlanadi. Misol keltirish orqali shoir, aytmoqchi bo'lgan barcha fikrlarini hayotiy misollar orqali isbotlashga harakat qiladi. Misol keltirish bo'limi quyidagicha boshlanadi.

Isoga Olloh bir ehtirom berdiki, uning nafasidan o'lik jonlar tirildi, jahon ahkli uning bu hislatidan xabardor bo'ldi. U ayb va gunohiga vositachi bo'lib, yaxshi yomonni o'ziga tobe' qildi. Bir fosiq - yomon ishlar qiluvchi parishonxol bor edi. Do'zax egasi uning uchun mo'tabar edi. Yeganiyu ichkani uning sharob, nafsu- havo o'tida bag'ri kabob edi. Umrida u yaxshi amal qilmagan jinoyat bilan toatni ayirboshlaydi. U shu paytgacha najot yo'li topmagan, barcha jahon ahli uning

fe'li yomonligidan malollanardi. O'z ishidan nafrat olib yaralansa ham, shaydo va maftun bo'lib turar edi. Bir zamonlar Isoyi Mayram bir zohid bilan kulbada, hilvatda yashadi.

Zohid unga qarshi kelib guldek yuzini yerga qo'ydi. Dediki: Ey pok rasuli xudo, mehr – muhabbat dengizi, ma'dani esa chindan xursandlikdir. Bechoralar uchun meni duo qil, toki men konni din uchun fido qilmayin. Menga hazrat jannatdan izzat bersa, yomon ishlar qilgan kishilardek azob ahlidek qilmasa edi – dedi. Bu so'znikambag'al eshitib, o'zini nadomat o'tida yoqdi. Fisqu – fasod – yomon ishlardan sharmsor bo'lib, zor qilib aytdiki: Ey Olloh! Ojizu bechora, dili yaralanganman, dunyo oxiratidan ovvoraman. Aybu gunohimdan boshqa yetishgan narsalarim bo'lmadi. Pushaymonlik va nadomat o'tida qoldim. Jazo kuni hisob – kitobda nima qilaman, g'azab qilsa unga nima deyman – deb parishonhol nola chekdi. U misoli qora bulut kabi tinmay yig'lar edi. Dardu hasrat bilan pushaymonlik aytar edi. Jahon ichra meningdek yaralangan, maftun, shaydo va zor kishi bormikan? Marhamating bilan madad bo'luvchi bo'lib meni qayg'u qo'lida asir qilma - deya go'yo Haqqa yolvorar edi.

Uning bunday holati orqali shoir, o'sha davrdagi xalq hayotini, turmush tarzini ifodalashga harakat qiladi. Dam – badam zohid hilvatda yashab uning ovozi eshitsa ham nafratlanar edi. Fosiqu bechorani aybdor qilib, o'zini ibodat aholidan deb bilar edi. Hammaga uning g'iybatini qilib, xislatlarini bir –bir bayon etardi.

Erta kecha fisq erur peshasi,
Zarrae yo'q Tangridin andeshasi.
Qilmas o'shul umrida bir dam namoz,
Ko'nglida yo'q zarrae sidqu niyoz .

Uning har bir so'zida yolg'on bor der edi. Haq uni kechirishi ham mushkul, undan nafratlansam ham bo'ladi. Uning maskani do'zaxku nima uchun u menga teng bo'lish kerak deya zohid undan malollanadi. Uning suhbatidan nafratim bor, mening toat va shuhratim jahonda to'lgan. Uni jannat ichra men va Haq orasida hamnafas va sherik qilishga sabab yo'q, deya o'z fikrini olg'a suradi.

Rostlik hanuz uning og‘zida edi –uning yo‘qolishi uchun ko‘z yumub ochkuncha fursat o‘tmadi. Uning nolalari, Ollohga murojaati yetib bordi. Hasrat Isogaki sen guvoh bo‘l, nechaki bu zohid edi, u johil ikkisining xojatini qabul etdik. Zohid xudbinga do‘zax doim maqomdir, fosiq va bechoraga esa dorussalomdir.

Zohid o‘zini ko‘rdi esa dar miyon,
Qoldi anga lan’ati Haq jividon.

Ya’ni zohid bir umr o‘sha g‘iybati uchun Haq lan’atiga duchor bo‘ldi, qolganlar har qancha gunohi bo‘lsa ham bizni panoh tutdi va natijada biz ularning tavbasini qabul qildik. Kimki bizga o‘zini bog‘lasa, biz uning barcha so‘zlarini qabul qildik. Lutfu – karam bilan ulxudoning yo‘ldoshi bo‘ldilar. Biz gunoh qilsak, uning dili og‘riydi Agar uning bandalari yaxshi – yomon bo‘lsa, ularga jazo sifatida masjid yoki kunisht(mayxona buddaviylar yig‘iladigan joy, ahli) Qudrati tufayli elga kunda qut keladi. Shoir uni ta’rifini keltirar ekan, aybi va toati uni halok qilgan , chunki hayvon va insonning bir – biridan farqi bor, uning hayoti bir umr fisq- u fasoddan iborat bo‘ldi, biroq zohid ham umrini toatda o‘tkazgan edi. Ikkisidan zohid – do‘zaxda, fosiq esa - jannatda. Bandasining ko‘nglida, u kim bo‘lishidan qat’iynazar Olloh doim bo‘lsa, u bu dunyodagi xizmatlari bilan ham o‘rin topa olmasada, baribir ko‘ngli pok bo‘lsa, uni kechirishi, g‘iybat qilgan zohid esa, o‘ziga gunoh orttirgani asosiy mavzu sifatida olingan. Shu o‘rinda hikoyadan chiqariladigan xulosa, kishi bu dunyoda kim bo‘lib yashashidan qat’iynazar yomon amal qilmasa, hatto fikrida ham birovni g‘iybatini qilmasa, uning amallar daftari yaxshilik bilan to‘ladi – degan xulosaga kelish mumkin. Hikoyatni oxirida shoir:

Qosimiydir ushbu ayitg‘an faqir,
Hasratu g‘am ilgida bo‘lgan asir.
Bordur umidiki, shahi bahru bar,
Qilg‘ay aning holina boshdin nazar.
Bandasi taqsirina tortg‘an qalam,
Lutfu xudovandi jahon az karam –

deya yakunlaydi. Bu bo‘lim oxirida shoir o‘zining ham bu dunyo tashvishlari va g‘amlari tufayli, bir faqir holida qolgani, uning shohning mehr dengizidan hamon umidi borligi, uning holiga bir kun boshdan oyoq nazar solib albatta karamidan bahramand qilishiga ishonch bildiradi.

Muqaddima bo‘limlaridan keyin, og‘ozi kitob (Kitobning boshlanishi) bo‘limi boshlanib, unda shoir dunyoning tinch holda qotib turmasligi, falakning gardishi doim aylanishini, insonlar ham shunga mos tarzda bu hayot sinovlarida belini bog‘lab yashashi lozimligi haqidagi hayotiy fikrlar bilan boshlaydi.

U xalqqa qarata: Ixtiyor sening qo‘lingda - ista chinlik talabi yo‘lida jon fido qil, ista bu lahzada g‘am, jabru – zulm, dardning asiri bo‘l. Aziz umringni sen nobud qilishing mumkin, o‘ylamaki hayvonning g‘ami faqat o‘t va suv deb, faqat insonlargagina fikrlash va til berilgan. Senda Ollohning zot va sifatlari zohir bo‘ldi. Nafsning qurboni bo‘lma, negaki Olloh olamni yaratib bo‘lib, yaxshi-yu yomonga vazifa berdi. Sen inson ekansan, yomonlikdan yiroq bo‘l – deya xalqqa murojaat qiladi.

Qudrat ila qildi vujudingni kull,
Ka‘bayi maqsud aning erdi bu dil.

Kimki, qilur Ka‘bayi dilni tavof,
Hazrati izzatda bo‘lur ul maof.¹

Ushbu misralarda kull va juzz tushunchasi tasaffuvning asosiy tushunchalari hisoblanadi. Kim Ka‘ba ziyoratini ixtiyor qilsa, u Ollohning izzatida bo‘ladi Shoirni shu o‘rinda tasaffuvning naqshbandiya tariqatiga mansubligini eslatib o‘tishni lozim topdik.

Shoir o‘z fikrlarini davom ettirib, Ka‘baning manzili uning dilida bo‘lishini, inson uni har qanday mehnat orqali anglab borishini aytib o‘tadi. Muqaddas joyning loyi ko‘p emas, dilning yarasi yashash joyi emas. Hosil va sarmoyaning bori dildadir. Foydangu – ziyoning o‘zingning qo‘lingda, falakda oftob sayru

sayohat qilar ekan, u xalqning suvu xokini parvarishlaydi, mehrni ayamay hammaga barabar nur sochadi.

Shoir barcha dil ahliga murojaat qilib: Vujudingda barcha sifatlar bor bo'lsa, undan inson hayotining asli kelib chiqadi. Bunday zamondan ajablanuvchi, o'zingni ko'r, tani. Sen nimani talab qilsang, u senda turadi. Ruhing yengilligi bilan taningda g'oyiblik ilmi birgalikda yuradi, sen nafsu - havo qo'liga ishonchingni berma. Hirsu – havas uyini makon qilmagin. Shavqu talab yo'liga qadam ur, ma'nodengizida o'izingni qoldir. Kambag'al, yo'qsil va xolis – qanoat inson bilan qo'shni bo'l, Hizr – u Masih doim yo'ldoshingbo'lsin. Ahli dilning mahrami bo'lmasdan, odamlar maqsadlariga yeta olmadilar.

¹ - Bu yerda maof (najot topish)

Ular uchun dunyobir ko'hna rabotday xarob edi, unga kim kelsa, tezda ketishga harakat qilardi – deya har bir fikriga falsafiy – axloqiy misollar keltiradi.

Bu hayot oqimida suz, karvonga qo'shil, agar yo'lga chiqsang, senga yo'l boshlovchi kerak, u seni manzilingga yetishingda bosh bo'ladi – deya nasihatimiz fikrlar keltiradi.

Ka'bayi maqsud erur sendin yiroq ,
Yuk og'iru to'sha yo'qu sen yayoq.

Mushkil erur anda saning yetmaging,
Garchi oson ko'rinadir ketmaging.

Ka'baning ziyoratiga yetishish har kimga ham nasib etvermaydi, uning manzili uzoq, sening yuking esa og'ir, ketishing oson ko'rinsada, ammo e yerga yetish mushkul deya uqtiradi.

Shoir yana buning bir iloji borligini ko'rsatadi: Agar Pirning nazari senga yo'l ko'rsatuvchi bo'lsa, yo'l g'amiga uchratmay seni eltib qo'yishi, Pirning nazari

misni zar qilishi, Pirning nazari xosiyatligidan o'liklar tirik bo'ldi. Biz buni o'zimiz ko'rdik – deydi .

Shoir fikrlarini davom ettirib :Kimki, ko'ngilning xizmatini qilsa, oxiratida o'ziga dinning davlatini hosil qilgan bo'ladi. sen Pirning xizmatidan malollanma, shunda dil ahlidan sen nazar topasan. Yaratuvchi kimning xizmatini qabul etsa, uning nazariga tushgan, xizmatlari qabul bo'lgan bo'ladi.Tolib bo'lsang Haq yo'liga qadam qo'y – deya tariqat yo'lining mashaqqati haqida so'zlaydi.

Kimdaki yo'qtur muhabbat g'ami,
Zohiru botinda emas odami.

Jo'sh kerak oshiqu devonag'a,
O't kerak kuygali parvonag'a.

Yuqoridagi misralarda ko'ngil ishi, bu yerda ham ilohiy, ham majoziy ishq sifatida kuylanadi.Olloh har doim insonlar dilida bo'lsa, uning qaddi sarvdek tik, siniq ko'ngillarga malham beruvchi panoh yo'li uning qalbidir – degan xulosaga kelinadi. Oshiqlik, Majnunlik ishi o'zgacha, uning belgisini kishilar qayerdan bilsin. Qush tilini Sulaymon bilardi, joni ko'ngilligini Homon bilardi.Ko'r kishi quyosh – u oy, qora tanli, oq yoki qora nimaligini qayerdan bilsin – deya tabiiy misollar keltiradi.

Shoir o'z fikrlari, tafakkur olami, falsafiy qarashlarini tabiat hodisalari orqali isbotlaydi. Shu sababdan kitobning boshlanishida va so'zboshilarda ham aniq bitta yo'nalish yoki g'oya asosida bir xil olib borilmaydi. Bu ham shoirning o'ziga xos uslubi deyish mumkin.

Agar ko'nglingning dardini do'st emas, begonaga aytsang unga jilva berib, ya'nio'zidan qo'shib, olamga fosh qiladi. Ka'ba va butxonani sayr qilib, o'zigahamma yaqinekanini biror begona kishini ko'rmadi. Demak, unga hamma insonlar bir xil ahamiyatga egaligini bilib olish mumkin.Jon ko'zingni ochib nazaringni to'g'ri qilsang, jumla jahon ahliga, do'stlaringga ayon bo'ladi. Pirini azoblagan murtad – yaramasbo'ladi.Kimki ,u kishiga muridlik qo'lini bersa, fisqu

– jaholat yo‘lini tark etadi. Ey, ko‘ngil, agar ishqqa banda bo‘lsang, xudoning marhamatidan umidingni uz, ko‘nglingda yaxshi yoki yomon o‘y kechsa, uni Olloh sezadi. Qosimiy, sen chinlik talabi yo‘lida bo‘lsang, sening ham yo‘lingni u ochadi – deya Haqqa ishonish har bir bandaning vazifasi ekanini ta’kidlaydi. .

Birinchi so‘zboshining mavzusi ko‘ngil haqida. Shoir ko‘ngil haqida fikrlarini yuqorida ta’kidlaganimizdek, dalillar bilan asoslashga harakat qiladi. Senga joning doim mehmondir, uni (jonni) o‘zingdan yoqimli tarzda ravon qil ketkiz. Olam va odam undan shodlik olgani uchun uning otini ruh qo‘ydilar.

Ey havas qiluvchi, bu jon senga bu dunyoda bir necha kun hamnafas bo‘ladi, senga ushbu saodat yetadi. Erta – kech uning xizmatini qilgin, sen uning hurmatini qilib ko‘nglingni qora ishlardan saqla – deya shoir o‘z fikrlarini davom ettiradi.

Hattoki, nafasingni ham yomon niyatda qilmagin, uning ko‘nglida xizmat bilan qabul bo‘lasan – deydi shoir.

Egri ozar, yerga yetar mard rost,
Elga yarar kimki, bilur shastu xost

ya’ni egri inson baribir yo‘ldan ozadi, mard esa rostlik bilan murodiga yetadi, elga kamon o‘qining irodasidek irodasi bo‘lgan kishilar yaraydi – degan fikrlarni shoir misralarga yuksak ma’nolar orqali biriktira oladi.

Shoir jon insonga omonat ekani, uni Olloh huzuriga pok holda yetkazish lozimligini uqtirar ekan shunday deydi:

Jonkim erur jumla jahondin aziz,
Shukrni bil sanda agar bor tamiz.

Inson huzur – halovati uning qilgan yaxshi amali, savob ishlari va yaxshiligida, shukrona keltirishidan yuzaga chiqadi. G‘urur atalmish tuyg‘uning muddati o‘tkinchidir, unga erk berishning oqibati yaxshi emasligini uqtiradi.

Shoir bundan tashqari vaqt qadri, xalq bilan hamjihat bo‘lish, yaxshi kishilar bilan do‘st bo‘lish, mehmonni kelganda unga munosib taom tutish, non mehmon

uchun eng yaxshi ne'matligini, to'g'rilikka yolg'onni aralashtirmaslikni ta'kidlab o'tadi.

Shoir ushbu so'zboshida xalq maqollaridan ham foydalanadi: arpa ekib bug'doy olaman dema, nasiya uchun naqd bu dam g'am yema.

Odam xizmat bilan yerga yetar, xizmat topmasa bu dunyoda mehmondek umri o'tib ketadi. Sen topganingni xalqqa yedir va ichir va bu dunyoda yaxshi yashab o't. Bu yo'l bilan aqlingni saranjom qil. Agar sen baxil bo'lsang, bu yo'lda hech qachon o'zigingni topa olmaysan. Jahon xalqining hammasida ko'zva quloq borki, ularda did, yaxshi aql, nozik, chuqur iste'dod – ularni ko'rib fikr qilgin.

So'z gavharlarini anglash uchun dono bo'lish kerak. Yo'lning izini ko'rish uchun bino kerak. Agar naql va rivoyat tolibi bo'lsang, ushbu hikoyatni tinglovchisi bo'l – deya fikrlarini yakunlaydi shoir. Bundan keyingi barcha so'zboshilarda oxirgi ikki misra takrorlanadi.

Tolib ersang, naqlu rivoyotg'a,

Mustami' o'l ushbu hikoyotg'a.

Ko'ngil haqidagi so'zboshidan keyin, Ibrohim Payg'ambar haqidagi hikoyat keltiriladi. Bu hikoyatda voqealar Ibrohim Payg'ambar tilidan keltiriladi. Hikoyatning mazmuni quyidagicha: ahli dil menga bir rivoyat qildi, bu qadimgi hikoyatlarga o'xshar edi. Ibrohimning uyiga bir hafta ichida hech kim mehmon bo'lib kelmaydi, bu odatga o'rganmagan Ibrohimning ko'ngli hijoloto'tida yondi. Yo'lga intizor boqib, qarasa yiroqdan bir g'ubor ko'rindi. Uning qarshisiga mehnat va g'amni unutgan, shod holda bordi. Chang vag'uborga qorishgan bir pirga o'xshash mo'ysafid ko'rindi. Odob shartlari bilan unga marhabo bo'ldi. Chin, soflik bilan dildan iltijo qildi. Dediki: Ey mehru-muruvvat, lutfga boy inson! Bir lahzaga bo'lsa ham kulbamga qadamingni bos. Mo'ysafid bir lahza nafas rostlagach, Halillullohning uyida to'xtashga qaror qildi. Bu lahzada, u hamma narsalarni muhayyo qildi. Mo'ysafid qancha taom tanovvul qilmasin, bir duo aytmay o'tiraverdi. Undan nima uchun bunday qilding? – deb so'radilar. U budparast bo'lgani uchun duo qilmasligini aytdi. Shunda bu holatdan Ibrohim Payg'ambar asl holatining nimaligini bildi. Kofirlar dinsiz va imonsiz bo'ladi –

deya g'azablanib, uni supra boshidan quvib soldi. Shu paytda Ollohning xitobi eshitildi. Nahyu malomat bilan: Ey Xalil. Biz uni to'qson yil parvarish qildik, parvarish qildik, hech qaysimiz uni haqorat qilmadik. Sen nima uchun uni dilini yaralading? Supra boshida uni xor- zor qilib chiqarib yubording. Agar menga u sajda qilsa, oldinroq sen ehson qo'lingni unga uzatgil. Sen bizga ulfatu do'stsan. Dard va balomizga talabgorsan – istovchisan. Shuning uchun otingni Halil qo'ydik. Sen chumolini xoru- zorlikda bo'lganini ko'rmagansan. Nima uchun kishidan yaxshi so'zingni ayaysan. Zor qilib Xalil dedi: Ey Olloh, agar bu gunoh mendan kelsa, lutfu karam bilan kechir, meni el oldida sharmanda qilma. Kofirlar bedindir, men unga nisbatan adolatsizlik qildim. Uning xizmatida qora sochlar oq bo'ldi, uning marhamatidan hamon umidingni uzma.

Sidq bila qilsang aning xidmatin,

Sandin ayarmu karamin xilqatin.

Dunyoning oxiratida ham pok bo'l, o'zingni tuproq deb bil mazmunidagi misralar bilan hikoyatni yakunlaydi.

Ikkinchi so'zboshi odamiylik hislatlaridan biri bo'lmish muruvvat haqida bo'lib, uning asosiy g'oyasi -insonning bu dunyoda tutgan o'rni, nomining abadiy bo'lishi, yaxshilik tufayli inson doim yuqori martabaga erishishi haqidagi pand – nasihat va o'gitlardan tashkil topadi. Oting Mustadom bo'lishini tilasang, muruvvating bilan el – xalqni xizmatida bo'l. O'z martabangni hosil qil, nafs va havo xirmoniga o't qo'yib, faqru - qanoatni doim ixtiyor qilishga, bu yo'lda uzlatga chekinish ham to'g'ri yo'l ekani haqidagi misralardan so'ng:

Sabru tahammul o'zingga pasha qil,

O'tti bu kun ertadin andesha qil,

ya'ni o'zingga sabr va chidamni o'zingga kasb qil, bu kun endi o'tdi, ertangi kunning mulohazasini o'yla, deya dunyoning o'tkinchiligiga ishora qiladi.

O'zingdan kishini dardli, g'amnok hisoblama, so'nggi pushaymondan foyda yo'q. Bahor bulutidan elga foyda tegadi, shunday ekan senga tosh – sopol va tayoq tegsa ham, sunbul va rayhon kabi xushbo'y, meva yog'ochi kabi boshhoqli bo'l

deydi. To'g'riligingdan davlat go'zal, qish, kuzu – yoz ham doim maroqlibo'ladi.Yomon kishi kabi o'zini o'ylovchi bo'lma.Qo'lingdan kelgancha barchaga yaxshilik qil.Uning ishlaridan xabardor bo'lsang ham, haqorat bilan kishilarga boqma. Chunki senga ko'plab ko'zga ko'rinmas narsalar ma'lum emas. Yo'l egri bo'lsa, to'siq kerak.Zaharni zahar kesuvchi dori bilan ichish kerak.So'fiylik, tariqatning ishi o'zgachadir, ularning muomalasini kishilar bilmaydi.Agar naql va rivoyat tolibi bo'lsang, ushbu hikoyatni tinglovchisi bo'l.

Muruvvat haqidagi so'zboshidan so'ng, Shayx Shibliy hikoyati boshlanadi. Ushbu hikoyat orqali shoir o'z davri haqidagi fikrlarni Shayx Shibliy haqidagi hikoyat orqali ochib berishga harakat qiladi: Shibliy bir kuni bir kishidan bug'doy uni va mosh oldi, uni otiga yukladi va uyiga olib bordi, olgan narsalari orasida bir chumolining oyog'i cho'loq holda yurar edi. Ko'nglida unga nisbatan mehr shafqat tuyg'usi hosil bo'ldi, u chumolini o'ylab kechasi bilan uxlamay chiqdi.

Shibliy o'yladi: chumoli muruvvatga zor emas, u manzilidan yiroq bo'lsa dili yaralanadi. Chumolini olib, uni yashaydigan yeriga yetkazib qo'ydi.Uning bu ishi Haqqa ham ma'qul bo'ldi. Uning asl holatini yuzaga chiqargan piriga rahmat. Bunday insonlar nazar ahli ichidagi bir shamchiroqdir.Himmatidan xotiramiz jamlangan.Aqling agar bor bo'lsa, ey murodi yo'q ushbu nasihatni mendan ol.Odamlarga o'zingni dili xasta qilib ko'rsatmasa – shunda Tangrining oldida uyatli bo'lmaysan.Har narsa bo'lganda ham chumoli zaifdir. Sening quvvating va qahringdan zaif emas, unga jabr- zulmni kattalashtirma, dili xasta bandaga zo'rlik qilma. Uning oldida nogoh chumoli bo'lib qolmaysan.Yaxshi – yomondan kishi har narsa qiladi, zamonaning aylanishi – evazini yetkazadi. Sham parvonaga jabr-zulm qilaman deb, boshdin to oxirigacha yondi. Kishiga jaholat bilan qasd qilma, uning holiga faryod yetib bordi.Shoir o'ziga murojaat qilib, agar sen tilab xuzur topsang, o'zingni yuz ulushi kam chumolidek ko'rgin.Unga imtihon shart emas, qalb gavharingni so'zlaring ayon qiladi – deya hikoyatni asosli misralar bilan yakunlaydi.

Shayx Shibliy hikoyatidan so‘ng, uchinchi so‘zboshi keladi. Uchinchi so‘zboshi ozodalik va soflik ya’ni qalb sofligi haqida bo‘lib, uning mazmuni quyidagicha:

Ozodalik olami insonlar uchun davlatdir, soflik talabi yo‘lida bir bechora bo‘lish ham uning uchun mukofotdir. Qanoat mayidan ichib mast bo‘l, dunyosini yo‘q qilib, o‘zing mavjud bo‘l. Faqru- fano yo‘lida erigin. Malomat o‘qidan e’tiroz qilma. Yuki og‘ir bo‘lsa, yo‘lda ot ham ozadi. Odamdan yaxshi nomqolishi kerak. Barcha jahon xalqlarida bu munofiqlik bor. Har kishining niyati qanday yaxshi bo‘lsa, uning davlatidir. Kimki, yomonlikka dalolat qilsa, nom nishoni bilan yo‘q bo‘ladi. Ma’rifatli bo‘lsang, nomu nishoning chiqadi.

Bu dunyo ishlarini ham, u dunyo ishlarini ham o‘ylab qilgin. Nafsu – havo qo‘lida asir bo‘lma. Bu havasni boshingdan chiqarib tashla, ey faqir. Qilning uchicha ham o‘zing bo‘l uddek. Hasrat vag‘am o‘tida kuygil. Kimni ko‘rsang, Hizr deb bilgin. Uning xizmatini joni ko‘ngling bilan qil, oltinu kumush dardiga duchor bo‘lma. Shaboda sayriga chiqib, o‘zingni dilingning yo‘lini aniqlab ol, hammani ortiq ko‘rgil, o‘zingni esa kam ko‘rgil – bu yo‘qlik yo‘liga qaddam qo‘ugan har bir solik uchun vojibdir – deya so‘zboshini an’anaviy misra bilan yakunlaydi.

Soflik haqidagi so‘zboshidan keyin unga mos ravishda Shayx Junayd hikoyati boshlanadi. Ushbu hikoyatda Shayx Junayd tariqat haqidagi bir ibratli voqeaning guvohi bo‘ladi. Shayx Junayd arab diyorida bir vaqtlar ovga yaramaydigan bir qari itni ko‘rib qoldi. Og‘zida tishi yo‘q, ko‘zi ko‘r, quvvati chumolidan yuz ulush kamdek turibdi. Ko‘rinishidan xasta, jarohatli va zor ahvolda, yarim kosa yuvindi uchun zor ahvolda edi. Undan ko‘p ibrat olib, xudoning mardini nola va fig‘on chekib shunday deydi:

Dediki: - Bu mandin erur yaxshiroq,
Piru xirad boshida boittifoq.

Ro‘zi qiyomat onga yo‘qdur hisob,
Bor mani osiyg‘a itobu azob.

Ya'ni it hozirgi ahvoli bilan do'zaxga ham, jannatga ham loyiq emas. Qiyomat kuni unga hisob yo'q, men gunohkorga esa shu kuni g'azab va azob bo'ladi. Nahot, meni bir marta so'ramasa, bir itcha e'tibor qilmasa. Meni itcha ko'rsa ham bu menga davlatdir, itlarining qatoriga kirsam menga g'am yo'qdir. Har kishiki, o'zini itdan kam ko'rsa, misoli uning oti Junayddek jahonda yo'q bo'lmaydi mazmunidagi misralar bilan hikoyatni davom ettirar ekan, inson uchun zarur bo'lgan barcha diniy va dunyoviy bilimlarni hayotiy misolar orqali bezaydi.

Shoir fikrlarini davom ettirar ekan: Haq yo'lini kim tanlasa o'zini kamtarin holda ko'rdi, talab yo'li ustida tuproq bo'lsang ham o'zingni yuksakda deb bil, agar chashma bo'lsang, sofdil va pok bo'l.

Tariqat yo'li qildan ham ingichkadir. Kibrga kim mijoz bo'lsa, unga o'limdan boshqa iloj yo'qdir. Bizga yor –u do'st, hamdam bo'lsang, sirlardan xabardor bo'l. Kimki sheva (sehrgarlik, maftunkorlik) ahliga yaqin tursa, o'zini o'rtada hech ko'rmaydi. Tariqat ahli Haqdan o'zgaga panoh tilamadi, Undan qimmatli lavozim, boylik va mansab so'ramadilar. Tariqat ahlidan bo'lsang, Haqqa tavakkal qilgin – deya yakunlaydi. Shoir har bir hikoyat yakunida o'zining xulosasini bayon etadi.

To'rtinchi so'zboshi rostlik haqida bo'lib, unda chinlik, shodlik kabi ezgu tuyg'ular ulug'lanadi. Shoir bu bo'limni boshlar ekan, shunday insonlar borki, ular hushi o'zida emasdek, mastu – alastdek edi, ular qo'l – oyog'i bog'li emasdi, lekin tarki dunyo qilib gadoy bo'ldi – degan fikrlar bilan boshlaydi. Agar senda did va farosat bo'lsa, sen o'z tanlagan yo'lingdan umidingni uzma. Tavakkallik bilan yo'lga qadam qo'y, qanoatdan voz kechma, agar himmating baland bo'lsa, qismating ham shunga yarasha bo'ladi, saodatni kishi o'zida hosil qiladi, bularni shoir go'yo chavgon o'yiniga o'xshatadi.

Shoir taqdiri azal va dunyoning sinovi, umr mazmuni haqidagi fikrlarini boyitish maqsadida yana shunday misralar keltiradi:

Hosil etar martabayi ming sujud,
Kimki qilur lahzayi nafyi vujud.

Ya'ni vujudidan bir lahza ham sajdani inkor qilmasa, ularning martabasi oshadi, niyati ushaladi.

Senki, bo'g'uz dardi bila xastasen,

Rishtae nomusinga pobastasen.

Shoir ushbu misralar orqali tariqat ahliga o'z murojaatlarini bayon etadi va bu yo'lga kirgan har qanday solik o'zini yo'qlik olamida deb bilmasdan turib, tariqat yo'liga kira olmasligini, bu yo'l shunday mashaqqatli ekanini ta'kidlaydi. Bu yo'lni agar azobli yo'l desang, foyda olish uchun bu yo'lni tanlamoqchi bo'lsang, bu yo'lga qadam qo'yma, umidingni uzib hayotning tosh – u tarozisini tut, fikringni shu yo'lda jamla kabi nasihatlar orqali o'quvchiga ham bu dunyo, ham oxirat dunyosidan xabardor bo'lish har bir kishining vazifasi ekanligini yetkazib bermoqchi bo'ladi. Shoir ma'viza ruhidagi fikrlarini davom ettirib so'zboshini quyidagicha fikrlar bilan yakunlaydi: Har kishi o'zining poya – oyog'ini to'g'rilik yo'lida saqlamasa, jami boyligini yelga sovuradi. Pir va ustoz ishi yanabulardir: bir lahzaning qadrini bilmasa, bu dunyoda yig'gan obro'sini yo'qotadi, ma'rifatli, adolatli shoh qayerda, ko'ngil uning holidan ham xabardor bo'lsa edi – mazmunidagi fikrlarni bildirgach, shoir dunyoning omonatligidan, oz bo'lsada hayotni mazmunli o'tkazishdan iboratligiga ishora qiladi.

An'anaviy yakundan so'ng, to'rtinchi so'zboshiga mos ravishda Shayx Baxlul hikoyati keltiriladi. Ushbu hikoyatda Bahlulning bozorga borishi va uning turli hodisalarga duchor qilinishini ham shoir go'yoki tasodifdan yuzaga kelgandek qilib ko'rsatadi.

Bozorda Bahlul ishqdan mast holda sayr qilardi. Bir go'shaga kirib o'tirdi, shu yerda bir toshga ko'zi tushdi, u bilan hamnafas bo'ldi. Tashqaridan qaraganda, kir, ichida nur bor. Ko'nglida zarracha shabadaning sururi yo'q. Podshohida toju – taxt bor, ammo lashkari yo'q. Uning davlatida jahon mulkiga xiroj – soliq yo'q. Toshdagi yozuv siridan u xabardor bo'ldi, hattoki o'limiga qadar u jahon sirlaridan boxabar bo'ldi. Muhabbat darsidan u saboq oldi, Hizrga do'st tutindi. Bu mardning holatidan olam hayratda qolib, ikki jahon uning oldida bir bargi

somondaybo‘lib qoldi. Bu ahvolda telpak olib, uni kiyib shu holatda yo‘lga ravona bo‘ldi. Bu holatni kutmagan xaloyiq ajab bir holga tushdi. Ulug‘lik maqbarasiga minib, mard yo‘lga chiqdi. Xalq unga “kel” dedi, u kelmadi. Bu harakat va sargardonliklar befoyda edi. Uni ketishini xaloyiq istamadi va qaytarishga harakat qildilar. Xalq talab qilsa ham, u bormadi.

Aytdiki, men yo‘l boshini saqlayin,

Qayda boru munda bu dam kelmayin.

Bir qabristonga borib makon tutdi. Oxiri, uning maskani qabr bo‘ldi. Xalqning ahvolini unutdi.

Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” asarida ham xuddi shu mavzudagi hikoyat mavjud bu hikoyatning nomi “Xorun bila Bahlul hikoyati” deb beriladi. Sayyid Qosimiyda “Hikoyati Horun ar Rashid va Abrobiy” nomi bilan alohida hikoayt keltirilgan.

“Shayx Bahlul” va “Xorun bila Bahlul hikoyati” ning o‘xshash va farqli tomonlari quyidagilar:

- Har ikki hikoyatda ham Bahlul ko‘chada, ishqdan mast holda biror joydagi holatda tasvirlanadi.
- Misralardagi o‘xshashlik: “Shayx Bahlul hikoyati” da hikoyatning boshlanish qismida

Sayr eta bozorg‘a Bahlul mast,

Kirdiyu bir go‘shada qildi nishast.

Podshohi besipahu taxtu toj,

Yo‘q qoshida mulki jahonga xiroj.

“Xorun bila Bahlul hikoyati”da

Bir kecha Xorun bila Bahluli mast

Bo‘ldi xilofat evida hamnishast.²⁴

Dedi xalifakim: - Ayo piri roh,

Taxt iyosi tojvari besipoh (207 bet).

“Xorun bila Bahlul hikoyati”²¹ ning Ma’viza qismidagi bayt :

Peshalari zaxmatu sidqu vafo,

Shevalari himmatu zavqu safo.²¹

“Shayx Bahlul hikoyati” tarkibida o‘zgargan holda uchraydi:

Peshalari himmati sidqu safo,

Shevalari ishq ila mehru vafo.

Bundan tashqari, hikoyatlardagi o‘xshashlik aynan syujetda emas, ko‘proq kompozitsiyada kuzatiladi. Qahramonlarning voqealarning boshlanish holati saqlab qolinib, syujetga o‘zgartirish kiritilgan. Hikoyatlarning har qaysisi o‘ziga xos syujetga ega bo‘lsada, mavzusi pand - nasihat, to‘g‘ri yo‘lga boshlashdir.

Xorun –ar Rashid va Abrobiy hikoyati, ushbu hikoyatda tama’ asosiy g‘oya sifatida olinadi va hikoyatning qisqacha mazmuni quyidagicha: Iroq cho‘lida bir arab, dili xasta, og‘zi bog‘liq holda yurar edi. U dili yaralangan holda, tuyasini yetaklab yurganda, unga nogahon bir Marg‘zor uchradi. Buloqlari sof, bag‘oyat ko‘rkam, maysa va bedalari juda chiroyli edi. Undan suv ichib, mardi arab bir lahza dili huzur, rohat – farog‘at, shodlik topdi. Dunyoda o‘zini taniganidan buyon bunday shirin suv yuzini ko‘rmagan edi. Aytdi: Shoyad agar jannat shu, Hizr ichgan tiriklik suvi shu bo‘lsa kerak. U bir lahza huzur qildi va boshiga g‘urur hukmronlik qildi. Xalifa qoshiga u meshkobga suvni olib borishni savob bo‘lsa

21. Навоийнинг ғинохитишган. Т . Фафур Фуломномадаги адабиёт ва санъат наشريёти. 1986. 187 – 215 6.

kerak, deb o‘yladi. Shu niyatda yo‘lga chiqar ekan, Xalifa unga xayolida sonsiz dirahamlar bergandek bo‘ldi. Xalifalik taxtida Horun ar Rashid edi, mol – davlat bilan birgalikda Qorun (juda boy lekin xasis, Muso davrida yashagan, ikkinchi ismi Qura) dek edi. Bag‘doddan Shomga qarab yo‘l oldi. To Xalifa qoshiga borguncha ko‘p ozozrlar chekdi. Meshkobsuvni olib borib, Xalifa qoshida ta‘zim qilib, yuzini qo‘ydi. Abrobiy dedi: Men tiriklik suvi keltirdim buni ichib o‘limdan najot top. Xalifa gap nimadaligini bilib, suvni savol bermay ichdi. Shundan so‘ng, Shoh uning qo‘lidan tutib, Dajlaga olib bordi. U bexabar o‘zidan xabar topdi. Dajlani ko‘rgach, bildiki sovg‘asidan hech qanday rivoj yo‘q. Dengiz bo‘lgan yerda suvga nima ehtiyoj bor. Dili ko‘p dardli, bo‘ldi, hijolat o‘tida bag‘ri butunlay yondi. Xalifa dedi: Ey dili xasta, g‘am – g‘ussa yeb, xijil bo‘lma.

Men senga boylik va taxtimni bersam, mendan zarracha ham minnatpazir bo‘lmasding. Daryo nima, dengiz nima taniding, ko‘rish a‘zosi ko‘r qilinganini bilding – deya uni xijolatdan qutqaradi.

Shoir bu hikoyat orqali, tama‘ning inson uchun qanchalik darajada bo‘lsa ham foydasizligini ko‘rsatib bermoqchi bo‘ladi. Inson buyuk mavjudot ekan, ung dunyoning eng yaxshi ne‘matlari ravo ko‘rilibdimi, demak, inson o‘zligini hech qachon yo‘qotmasligi lozimligi hikoyatning mazmunini tashkil qilgan.

Beshinchi so‘zboshi faqirlik haqida bo‘lib, shoir “faqirligim – faxrimdir” mazmunini oshib berish uchun xalq maqollaridan ham foydalangan, uning asosiy mazmuniquyidagicha: Kishilar uchun faqirlik davlat, agar kishilarning ungayaqinligi bo‘lsa, bu uning saltanatidir. Go‘yoki, ko‘r ko‘zlarga faqirlik orqali obi hayot kelgandek bo‘ldi. Agar gadoylik qilsang ham, bu kasbni halollik bilan qil, ko‘ngling doim sof bo‘lsin. Kishilarning tashqi tomoniga emas, ichki olamiga nazar sol, chunki, u kambag‘al bo‘lsa ham ko‘ngli sof bo‘lishi mumkin.

Shoir shu o‘rinda tasavvufiy fikrlarni ham keltiradi:

Ayla tavakkulki, budur to‘g‘ri yo‘l,
Yo‘lni o‘zar kimki, berur pirga qo‘l.

Ushbu fikrlar mustahkamlangandan so‘ng maqol keltiriladi:

Tiymasa bu tilni yetar boshg'a,
Saqlamasa ko'zni tegar yoshg'a (47 b)

Kishilar doim mehr –muruvvatli insonga intilishadi, o'zingdan kishilarni bezdirma, doim e'zozda bo'lishni istasang, mehr - muruvvatli bo'l.

Faqirlik haqidagi so'zboshidan so'ng, Zohid va Fosiq hikoyati keltiriladi. Shoir ushbu hikoyatda bir zohid va fosiqning o'zaro munozarasi orqali nafsni yengish mumkinligini ko'rsatib beradi. Kufada bir zohid kishining yoniga bir fosiq kelib, uning yoqasiga qo'l soldi, biroq zohid unga hech narsa qilmadi. Odamlardan biri “Unga agar sen xohlasang unga bas kela olasanku” – deganda. Zohid: Men agar unga ozor yetkazsam, men undan ham battar kishiga aylanib qolaman – deya javob beradi. Shoir so'z orqali nafsni o'ldirgan kishi holatini ko'rsatib bergan. Hikoyat yakunlangandan so'ng ham shoir o'zining ushbu holatga munosabatini ifodalash orqali o'ziga xos uslub yaratgan deyish mumkin.

Oltinchi so'zboshi tariqat ahlining xizmat haqidagi qarashlariga bag'ishlangan bo'lib, unda pir darajasiga yetish uchun doim murid xizmatda bo'lish kerakligi, uning xizmatidan hech ham malollanmaslikni, shu orqali kishilar o'z murod maqsadlariga yetishi mumkinligi hayotiy misollar orqali ifodalangan. Shunga mos ravishda shohG'oziy–G'aznaviy haqidagi hikoyat keltiriladi.

Yettinchi hikoyat dunyoda kishilarning rost gapirmasligi haqida bo'lib, ushbu hikoyatda shoir mashhur shaxslar : Sulaymon va Hotam Toyga murojaati orqali o'z fikrlarini asoslaydi. Shoir o'quvchiga shunday deydi:

Bo'lma manim ushbu so'zimdin malul,
Faxming agar bor esa qil qabul.
Garchi sanga saxt kelar bu so'zim,
Ko'rdi saningdek nechalardni ko'zum (53 b)

Bu dunyoda kishilar nima uchun rost so'zlamaydi, uning fikri ko'ngli bilan so'zi mos emas. Men shundaylarning nechasini ko'rdim, ularning xoki lahad ichida bir fotihaga zor holda yotibdi. Sen shunday bo'lishni istamasang, ota – onangning

holidan xabar ol, ular bor paytida yaxshilik qilib qol, sening navbating kelsa, shunday javob olasan, bu dunyo hech kimga vafo qilmadi – qabilidagi nasihatlar bilan yakunlaydi.

Ushbu so‘zboshiga mos ravishda Shoh Jamshid hikoyati keltiriladi. Bu hikoyatning mazmunida shoir, shoh Jamshidning toshga o‘yib yozdirgan misralarini keltirish orqali shoh tomonidan aytilgan so‘zlarni xalq doim yodida tutadi va bu so‘zlar abadiy qolishiga ishora qiladi. Dunyoni shuncha mehnatu - mashaqqat bilan zo‘rg‘a oldik, biroq uni tashlab baribir qabrga yuz tutdik. Dushmanu–do‘stingga jafo qilma, uni g‘am cho‘ktiradi, zaharning ham shakarning ham xosiyati so‘zda, insonning barcha xislati esa ko‘zidan bilinadi – deydi shoir. Senga Olloh tomonidan berilgan imkoniyatni yaxshilik yo‘lida sarf et, yaxshilik insonni jannatga eltuvchi yo‘ldir. Dushmaning agar chumoliday bo‘lsa ham, qo‘lingda asir bo‘lsa ham, uni faqir deb bilmagin – deya mazmunli nasihatlar qiladi. Shoir yana insonlar nima uchun shuncha mol – dunyo, boylik yig‘sa ham Haq yo‘lida bir dirham bermadi va oqibatda, bu dunyodan hech vaqosiz ketdilar deya savol mazmunidagi so‘zlar bilan yakunlab, xulosani o‘quvchiga qoldiradi. Bu uslni ham shoirning o‘ziga zos yo‘nalishi desak bo‘ladi.

Sakkizinchi so‘zboshi dunyoning omonatligi haqida bo‘lib, bunda shoir qadimgi qissalarda ham bular ta’kidlangani, ko‘ngilni bir dam bo‘lsada shod qilib yashash, insonning dunyo ishlari oldida ojizligini aytib o‘tib, qadimiy qahramonlarga murojaat qiladi. Zahhok va Jamshidni misol qilib keltirib, bu dunyodan ular dardu alam bilan bordi, agar umr abadiy bo‘lganda ularga o‘lim raxna sola olmas edi – deya shoir bir qancha misollar orqali o‘quvchini xushyorlikka chaqiradi. Yana tinglovchiga murojaat qilib:

Vaqtı savol o‘lsa javobing nedur,

Daftari a’molı savobing nedur (56 b)–

misrasi orqali har qanday savobli ishga o‘zingni faqat bu dunyoda bag‘ishla, va buning karomatini sen amal daftaringda ko‘rasan mazmunidagi nasihatlar bilan so‘zboshini an’anaviy yakunlaydi. Bu so‘zboshidan keyin shoh Fariduni Farrux

hikoyati keliriladi. Shoir bu hikoyatda tariqat ahlining Faridunga Jamshidga bu dunyo vafo qilmadi, demak, sen shundan xulosa chiqarishing, g'amgin, beva – bechoralarni umidsiz qo'yma, bu dunyoda hech bo'lmasa kishilarning umid oshiga qozon qaynatma degan nasihatlarini she'riy tarzda, sodda ravon tilda yetkazadi. Shoir misralarni yoritar ekan, unga mavzuga mos tarzda misollarni kiritib o'tadi: tarixiy shaxs Qorun kabi olamda boy inson kam edi, lekin u bu jahondan gadoy kabi ketdi. Kishilarning bog'langan ishini erta bilan qilingan niyatlari ochib beradi. Bu dunyo boyligidan umidingni uzib, uning ishvalariga ko'ngil berma – deydi.

Shoir bu o'rinda ota – ona obrazlarini ham kiritib o'tadi, bu holat asarning har qanday o'quvchi uchun ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi:

Tig'i sitam birla to'kub qonini,

Oldi otang birla onang jonini –

deya, dunyoning beshafqatligiga ishora qiladi. Shoir o'rni bilan badiiy san'atlardan ham foydalanadi.

Quyidagi baytda *ishtiyoq* san'ati qo'llangan. Bu san'atning ma'nosi "so'zdan so'zni ajratmoq" bo'lib, she'r baytlarida o'zakdosh so'zlarni qo'llash san'atidir. Shoir san'atlarni qo'llashda ham o'ziga xos yo'ldan borgan:

Har bir ishida bor uchun ming fani,

Qo'ydi otin *dunyoni dun, daniy*

Bu misrada ***dunyo, dun, daniy*** – so'zlari *ishtiyoq* san'atini hosil qilgan.

Dunyo – yer, olam. Dun – past, tuban. Daniy – yaramas, nokas ma'nosini bildiradi. Ya'ni, kishilar shuning uchun bu dunyoning otini nokas, tuban deb qo'ydilar – deya, dunyo obraziga o'sha davr muhitini qo'yadi. Shoir ushbu hikoyatni Qosimiy va Haqdan boshqa kim borki, bu dunyoda o'tkinchi bo'ldi – nima uchun odamlar omonat dunyoda o'zini qadrlamaydi, deya yakunlaydi. To'qqizinchi so'zboshi adolat to'g'risida bo'lib, unda shoir adolatning ta'rifini keltirar ekan, adolat yo'lini kim tanlasa, u dunyo va oxiratda e'tiborda bo'lishini

keltirishdan boshlaydi. Bundan tashqari shoir xalq oldida yuzi yorug‘ bo‘lishini istagan kishiga agar boy bo‘lib adolatli bo‘lsa, xalq ichida zulmni kamaytirs, xalqning faryodini eshitsa uning nomi xalq ichida doim yodgor bo‘lib qolishi, ajal kelsa ham uning yuzi yorug‘ bo‘lishini ta’kidlar ekan shunday deydi:

Yaxshi oti elga qolur yodgor,
Yetsa ajal kelsa basar ro‘zgor.
Qilmag‘il o‘zga kishidin iftixor,
Har naki dersen bori senda bor.

Shoir o‘sha davr xalqning orzusidagi shoh qanday bo‘lishini hikoyatlarning asosiy g‘oyasi sifatida har bir hikoyatni pand – nasihat ruhida yaratadi. Adolat haqidagi so‘zboshiga mos ravishda shoh Qubod haqidagi hikoyatni keltiradi. Ushbu hikoyatning qisqacha mazmuni quyidagicha: shoh Qubod vaqti soati yetganini bilgach, o‘z ayonlariga va yaqinlariga meni vasiyatimni yodingizda saqlang deya – shoh bo‘lgan kishiga avvalo xalq, hudud kerak, shohlarning ko‘pchiligi xalqqa ko‘p soliq solib uni o‘zi talaydi, dushmanning keragi yo‘q, agar shoh adolatli bo‘lsa xalq uni doim e‘zozlaydi. Odamlar adolatingdan ko‘ngli xotirjam bo‘lsin, ularni zulming bilan ozg‘in qilma, agar davlating ziyoda bo‘lishini tilasang fairlar ishini ziyoda qil, kimda kibr bo‘lsa uning bu hayotda yashashidan nima foyda, qadimgilardan qolganini eshit ikki dunyo bir kuni bir bo‘ladi, shunda faqat senga xayr – savobinggina qo‘lini uzatadi – qolgan barchasi bekor mazmunidagi misralar bilan yakunlaydi.

O‘ninchi so‘zboshi tasavvuf ahli haqida bo‘lib, unga mos ravishda Rishta kasaliga muhtalo bo‘lgan shoh hikoyati beriladi. Bu hikoyatning mazmuni o‘quvchini hushyor torttiradi, sababi unda kasallikning oqibati adolatsizlik bo‘lib, shu tufayli shohning kasaliga davo topilmaydi. Hikoyatdan chiqariladigan xulosa esa, tabiiyki davr mansabdorlari, shohlar va amaldorlar bitta kasallik oldida ojiz holatda qolishi mumkinligi, buning sababi esa adolatsizlikligini uqtirish orqali hikoyat mazmuniga chuqur falsafiy ma’no yuklagan“ Bu hikoyat Farididdin Attorning “ Hay’atnoma” asarining oltinchi faslidagi tamagirlik bobidagi hikoyaga juda yaqin turadi” –deya ushbu fikrlarni B. Qosimxonov o‘zining monografiyasida

asoslashga harakat qiladi. O'n birinchi so'zboshi qanoat haqida bo'lib, unga monand tarzda Sheru tulki hikoyati beriladi.

O'n ikkinchi so'zboshi vafodorlik haqida bo'lib, unda vafo timsoli sifatida an'anaviy it obrazi kiritiladi va Xojayi Bozargon haqidagi hikoyat keltiriladi. O'n uchinchi so'zboshi baxillik va xasad haqida bo'lib, uni mazmunini ochish uchun hikoyat keltiriladi. O'n to'rtinchi so'zboshi mehr – muruvvat, karam haqida bo'lib, unga Yaman podshohi haqidagi hikoyat keltiriladi. O'n beshinchi so'zboshi tama' haqida bo'lib, unga monand tarzda Xorun ar-Rashid va Abrobiy hikoyati keltiriladi.²⁵ O'n oltinchi so'zboshi ishq haqida bo'lib, unga mos ravishda ishq timsoli bo'lmish Layli va Majnun hikoyati keltiriladi. O'n yettinchi so'zboshi Ka'ba ziyorati haqida bo'lib, unga mos ravishda Porado'z haqidagi hikoyat keltiriladi. Barcha maqolotlarda o'ziga xoslik mavjud bo'lib, maqolot (sarsuxan) larning oxirida doim hikoyatga ishora bor. Masalan: birinchi so'zboshidagi quyidagi bayt:

Raddi nafas qilmag'il, ey bulfuzul,
To bo'lasen barcha ko'ngulda qabul.

Hikoyatda ham shunga o'xshash bayt uchraydi:

Kimki, qilur xidmatimizni qabul,
Ursa qatig'roq dam, erur bulfuzul.

2.3 Dostondagi hikoyatlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari

Sayyid Qosimiy asardagi hikoyatlarni yoritar ekan, unda dastavval so'zboshidagi mavzuni mustahkamlab olgan holda, keyin hikoyatning asosiy mavzusi, qahramonlar nomi, kelib chiqishi, mansabi, ijtimoiy holati kabilarni yoritadi.

Asardagi hikoyatlarni tahlil qilar ekanmiz, shuni ta'kidlashni lozim topdik. Hech bir hikoyat faqat voqealar ko'lamini o'zida jamlamaydi. Qisqacha

²⁸. Косимхонов, Б Саййид Косимийнинг адабий - дидактик дostonлари. Тошкент. Фан – 1987. 37 – 6.

mazmundan so‘ng, shoir yana pandnoma baytlar keltiradi. Har bir hikoyatning oxirida shoir o‘ziga murojaat qilgan holda taxallusini keltiradi. Masalan:

Qosimiy qilg‘il sen o‘zingni adam,
Kimki adam bo‘ldi o‘lardin na g‘am.

Bu yakuniy misra Shayx Bahlul haqidagi hikoyatda keltirilgan bo‘lib, bu hikoyatga bog‘liq ravishda shoir o‘ziga agar bu duyoda yo‘qlik olamini tanlasang, sendan oldingilar kabi g‘amsiz bo‘lasan – degan fikrlar bilan yakunlaydi. Yoki:

Qosimiy sen qo‘yma anga e‘tiqod,
Gar tilasang bandi balodin kushod.

Bu so‘nggi misra Shoh Jamshid haqidagi hikoyatga ilova qilingan bo‘lib, shoir o‘z taxallusiga murojaati orqali aslida xalq va mansabdor shaxslarga murojaat qiladi. Bu hikoyat mavzusi dunyoning hech kimga vafo qilmasligi haqida bo‘lib, faqat mol – dunyoga e‘tiqod qo‘ygan insonlar oqibatda bir kaft duoga zor bo‘lishi masalasini shoir o‘quvchi kitobxon oldiga ko‘ndalang qo‘yadi.

Asardagi barcha hikoyatlar, so‘zboshilar kamolotning mohiyati, shartlari, belgilarini yoritishga qaratilgan. Asarda odob – axloq, vijdon, insof kamtarlik, mehr-muruvvat, qanoat, vafo kabi bir qancha yuksak axloqiy sifatlar o‘z aksini topadi. Hikoyatlar mundarijasiga nazar tashlasak, ularning asosiy qismini shoir ijodi namunasi deydigan bo‘lsak, oz qismi an‘anaviy hikoyatlardir. Bir qancha pandnoma mazmunidagi hikoyatlar keltirilgan bo‘lib, barcha hikoyatlarning bosh g‘oyasi–xalq istayotgan adolatli shoh, farovon turmush, oqibat masalasini tinglovchiga oddiy tarzda ifodalash bo‘lib, shoir bunga hikoyatlarni tasvirlash jarayonida erishadi. Ijodkor o‘zining bu she‘riy asarida tariqat ahlining holati, pir va murid o‘rtasidagi munosabat, “yo‘lga kirganga boshchi kerak” mazmunidagi misralarida diniy va dunyoviy ta‘limotdan yaxshigina xabardorligini va tinglovchini ham shu yo‘lga boshlashni maqsad qilganini his etish qiyin emas.

Qanoat haqidagi so‘zboshiga ilova tarzda Sheru tulki hikoyati beriladi. Bu hikoyatda inson tekinxo‘r bo‘lish haqida o‘ylamasligi, unga berilgan qobiliyat boshqalarga berilmagani uchun uning qadriga yetish lozimligi keng yoritib beriladi.

Vafodorlik haqidagi soʻzboshiga mos ravishda Xojayi Bozargon haqidagi hikoyat keltiriladi. Dunyo hech kimga vafo qilmaydi, ammo it egasiga qay holatda boʻlmasin, doim vafodor degan gʻoya ilgari surilgan.

Baxillik va xasad haqidagi soʻzboshiga mos ravishda, bu hikoyat Xoja va gado haqida boʻlib, shoh huzuridan haydalgan xizmatkor keyinchalik boshqa xojaning xizmatiga ketadi, biroq xoja endi gado boʻladi va oʻzining xizmatkori yashayotgan uyiga tilanchilik qilib boradi. Uning xojasi nima soʻrsa bergin deya javob beradi, shunda xizmatkor koʻzi yoshlanib boʻlgan voqeani xojasiga aytadi. Hikoyatdan chiqariladigan xulosa, insonlar bir – biriga doim mehr – muruvvatli va gʻamxoʻr boʻlishlarini taʼkidlashdir.

Yaman podshohi haqidagi hikoyat oʻn toʻrtinchi soʻzboshiga keltiriladi. Undagi asosiy obraz mehr – muruvvat timsoli Hotami Toy hisoblanadi. Hotami Toy obraziga shoir alohida yondashgan boʻlib, uni karam egasi sifatida yanada yangi voqealar qurshovida qoldiradi. Bu obrazni yanada yangi koʻrinishda kitobxonga taqdim etadi.

Keyingi soʻzboshi tamaʼ haqida boʻlib, unga monand tarzda Xorun ar – Rashid va Abrobiiy hikoyati keltiriladi. Bu hikoyatni yuqorida tahlil qilishga harakat qildik.

Ishq haqidagi soʻzboshidan soʻng, unga mos ravishda ishq timsoli boʻlmish Layli va Majnun hikoyati keltiriladi. Anʼanaviy qahramonlar boʻlsada, Layli va Majnun hikoyati ham oʻziga xos usulda yozilgan boʻlib, unda ham yuqorida izohlaganimiz “yori gʻor” Layli tomonidan Majnunga nisbatan ishlatiladi. Ularning suhbatiga tong firoq solishi shoir tomonidan goʻzal tashbehlar orqali tasvirlanadi. Farididdin Attorning “Ilohiynoma” asarida esa Majnun bilan bogʻliq boʻlgan uchta sheʼriy hikoya keltiriladi. Ularning barchasida oshiqning maʼshuqaga boʻlgan ilohiy muhabbati namoyon boʻladi. Sadiy Sheʼroziyning “Guliston” asarida ham “Layli va Majnun” haqidagi hikoyat mavjud. Mazkur gʻoya fors-tojik adabiyotining yana bir taniqli vakili, xamsanavis Xoju Kirmoniyning «Ravzat ul-anvor» dostonidagi hikoyatda oinaga qaragan Majnun tilidan oʻziga xos tarzda ifodalangan. Bular orasida Hayoliyning “Layli va Majnun”, Amiriy va Nosirxoʻja

valadi Mansurxo‘janing shu nomli asarlari, Nazmiya Muhiddinovaning yozishicha Mirhasan Sadoiy Devonida ham “Layli va Majnun ” nomli doston bor ekan. Va yana Amir Umarxonning o‘g‘li Madalixon ham “Layli va Majnun”, uyg‘ur shoiri Nizoriy ham shu nomli asar yozgan.

Ka’ba ziyorati haqidagi so‘zboshidan so‘ng, unga mos ravishda Porado‘z haqidagi hikoyat keltiriladi. Muqaddas joyning ziyorati har bir mo‘min – musulmonning orzusi ekanligi oddiy yamoqchining yuz dirham yiqqanini bir qo‘shnisiga bergani uchun uning bir dirhamiga yuz savob qo‘shilgani, u go‘yoki Haj ziyoratiga borgan kishilardek savobi qabul bo‘lganidan xabar topadi. Bu misol orqali shoir sen vijdoningni pok qilsang, gul kabi toza yuzli bo‘lasan.

Himmat haqidagi so‘zboshidan so‘ng, unga monand tarzda Iskandar haqidagi hikoyat keltiriladi. Iskandar o‘z davrining himmatli shohi sifatida adabiyotda alohida obraz sanaladi. Iskandarning otasidan qolgan mol – mulkka egalik qilishdan bosh tortishi, ammo xalq xohlagani uchun yana mamlakat boshqaruvini qo‘lga olib, xalq ichida adolat o‘rnatishi, shundan so‘ng boshqa hududlarga hujumi va g‘alabalari voqealari, buyuk shoh obrazi shakllantiriladi. Umuman, o‘zining hikoyatlar orqali shoir ideal shoh obrazini yaratar ekan, xalq ana shunday podshoh xohlayotganini Sulton Abu Sa‘id Mirzoga yetkazib berish uchun, ushbu asarida ko‘proq hikoyatlarning qahramonlariga yuzlanadi. Shoir ushbu maqsadiga erishadi ham, dostonidagi hikoyatlarni o‘qigan har bir o‘quvchi undan o‘ziga xos xulosalar chiqarib oladi. Shoir barcha hikoyatlarining qahramonini to‘g‘ri tanlay olgan.

Hikoyatlarni keltirar ekan o‘zining barcha didaktik, axloqiy – ta’limiy, diniy va dunyoviy bilimlari yuzaga chiqarishga harakat qilgani, bundan tashqari o‘ziga xos usul qo‘llay olgani; salaflaridan ilhomlangan holda asar yozayotganini asar boshidayoq eslatib o‘tishi; “men ularni tarqatmay yig‘ib bob –bob qilib taxlayman” – deya asari haqida muxtasar ma’lumot berish usuli, hikoyatlarning asosiy g‘oyasidan so‘ng, pand – nasihat mazmunidagi misralar bilan yakun qilishini asardagi hikoyatlarning mukammallashishini ta’minlagan deyish mumkin.

XULOSA

Sayyid Qosimiy ijodini o'rganish jarayonida paytida juda ko'plab manbalarga murojaat etdik va shuni anglab yetdikki, haqiqatan ham shoirning hali o'rganilmagan hamda ochilmagan jihatlari ko'plab topiladi. Ajdodlarimiz tarixini bilish, uni o'rganish va kelgusida o'quvchi yoshlarga yetkazish, ularni shoir ijodi bilan tanishtirish borasida biz yaxshilikni targ'ib qilinishi o'sib kelayotgan avlod vakillariga o'z xalqi va vataniga sodiq bo'lib ulg'ayishlari uchun muhim manba bo'lishi shubhasiz. Chunki birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq olg'a surgan "tarixsiz kelajak yo'q" deb aytgan fikrlari o'z isboti va tasdig'ini topmoqda. Yurtimizdagi har bir tarixiy manbani o'rganish bu faqat adabiyot sohasi uchun emas, balki barcha sohalar uchun xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Biz buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" risolasida ham tarixiy obidalar va manbalar borasida qimmatli fikrlar mavjud. Aynan keltiradigan bo'lsak, Prezidentimizning saylovoldi dasturidagi Samarqandga "Samarqand tuprog'ida voyaga yetgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidaxmad Siddiqiy singari o'nlab ma'rifat fidoyilarining qoldirgan o'lmas merosi, bugungi kunda ham ma'naviyatimizni yuksaltirish yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim

manba bo‘lib xizmat qilmoqda”²⁶ degan fikrlari va hozirgi adabiy jarayonga ham munosabatlarini bildirgani ahamiyatga molikdir.

Bitiruv malakaviy ishida ham aynan XV asr turkiy adabiyotining yetuk vakili bo‘lgan adib va uning ijodining qimmatini asoslashga harakat qilindi. Sayyid Qosimiy XV asr turkiy adabiyotiga o‘z ijodiy merosi orqali katta hissa qo‘shgan, uning hayoti va ijodi, badiiy merosini o‘rganish mumtoz adabiyot tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shoir adabiy merosi xamsanavislik an‘anasining ilk shakllanish bosqichini o‘rganish uchun yetarli ma’lumot bera oladi, shuningdek, an‘anaviylik va o‘ziga xoslik shoir merosining asosini tashkil etib, shoir an‘anani saqlab qolgan holda o‘ziga xos yo‘ldan boradi. Bu esa, Sayyid Qosimiy adabiy merosini yanada chuqur o‘rganish lozimligini bildiradi.

“Majma’ ul–axbor” asarining yaratilishi xamsanavislikdagi an‘anaviy birinchi asarlar tuzilishiga o‘xshaydi, biroq shoir aynan Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul–asror” asarining ayni nusxasini emas, shu tipdagi asarlarning yana bir namunasini yaratishga erishdi. Sayyid Qosimiyning “Majma’ ul–axbor” asarini o‘rganar ekanmiz, asosan, pand – nasihat, xalq turmush tarzi, didaktika, ma’viza asosiy mavzu ekanligiga guvoh bo‘ldik. Bu esa, shoir o‘sha davr ijtimoiy hayotini yoritir ekan, uning mohiyatini ochishda alohida yo‘ldan borganini ko‘rsatadi. Muallifo‘zidan oldingi salaflari, xususan, Navoiygacha bo‘lgan davr xamsanavislarining ilk dostonlariga hamohang asarini yaratdi.

Shu jihatdan Haydar Xorazmiyning «Maxzan ul-asror» dostoni falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta’limiy qarashlarini bayon etish, kishilarga ta’lim va o‘git berish maqsadini qisqaroq shaklda bayon etgan bo‘lsa, Sayyid Qosimiyning asarida kengroq tarzda namoyon etilgan. Bu o‘z navbatida, asarning kompozitsiyasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. “Majma’ ul – axbor” asarini Haydar Xorazmiy asarining aynan tarjimasi deya olmaymiz. “Majma’ ul – axbor” dostonida shoir o‘z mahoratini namoyon etishda an‘anaviy obrazlarga ham yangi

²⁶Mirziyoyev, Sh. M. Biz buyukkelajagimiz nimardva olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston. 2017, – 484 b.

sifatlarni yuklash orqali alohida yo‘l tutadi. Bunda shoir hikoyatlarning g‘oyaviy ta‘sirini oshirishda qahramonlarni turli holatlarda ko‘rsatib beradi.

Asar matni bilan ishlashda, ba‘zi o‘rinlarda baytlar takroriga duch keldik. Ushbu baytlarning takrori, xalq og‘zaki ijodidagi o‘ynoqilikni saqlab qolish maqsadida olib borilgan yana bitta usul deyish mumkin.

Umuman, o‘z hikoyatlarida shoir ideal shoh obrazini yaratar ekan, xalq adolatli, saxovat va himmatli, xalqning dardi bilan yashaydigan shunday podshoh xohlayotganini Sulton Abu Sa‘id Mirzoga yetkazib berish uchun, ushbu asarida ko‘proq hikoyatlarning qahramonlariga yuzlanadi. Shoir bu maqsadiga erishadi ham, dostonidagi hikoyatlarni o‘qigan har bir o‘quvchi undan o‘ziga xos xulosalar chiqarib oladi. Shoir barcha hikoyatlarining qahramonini to‘g‘ri tanlay olganva ular orqali aytmoqchi bo‘lgan fikrini aniq izohlay olgan deyish mumkin.

“Majma’ ul-axbor” dostonining o‘ziga xosligiquyidagilardako‘rinadi:

- Sayyid Qosimiyning “Majma’ul– axbor” asarining tuzilishi, sarsuxanlarning boshqa asarlardagi ma‘vizalardan o‘xshash va farqli jihatlari, jumladan Haydar Xorazmiy asarining kompozitsiyasi bilan umuman o‘xshamasligi, Xorazmiyda hikoyat va mav‘izalarning o‘rni aniq emas, Qosimiyda esa bitta sarsuxan, bitta hikoyat ko‘rinishiga qat’iy amal qilinadi.
- Hikoyatlarning mavzusi, ularning ahamiyati, Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul – asror” asari bilan qiyosiy tahliliga ham alohida e‘tibor berdik, jumladan “Shayx Bahlul” va “Xorun bila Bahlul” hikoyatlari qiyosiy tahlil etilganda, misralardagi o‘xshashlik va syujetdagi o‘ziga xoslik, Bahlulning har ikki hikoyada alohida obraz sifatida ko‘rdik. Bunga ko‘plab misollar keltirish mumkin.
- Har bir hikoyat va sarsuxanning bir – biriga bog‘liqligi, ularning bog‘lanish xususiyati, shoir qo‘llagan usul va an‘anaviylik aniqlash qavomida shoirning o‘zidan oldingi salafar ijodidan xabardorligi va muhim bo‘lgan holatda mohirona javobini kuzatdik. Jumladan, Sayid Ahmadning “Taashshuqnoma” asarida “So‘zning oxiri” bo‘limidagi takrordan ihomlangan holda, sarsuxan oxiridagi yangicha takrori, aynan misraga esa,

asarning ikki joyida tatabbu' qilgani asar mazmunining yanada o'qimishlilikini oshirishga xizmat qilgan deb ayta olamiz.

Sayyid Qosimiy xamsanavislikning turkiy adabiyotga xos bo'lgan noan'anaviy yo'lidan borganligini ko'rib o'tdik. U nafaqat Haydar Xorazmiyning dostoni, balki boshqa xamsanavislarning asarlaridan ham ta'sirlanganligiga shubha yo'q. Sayyid Qosimiyning "Majma' ul-axbor" dostoni turkiy adabiyotda xamsanavislikning shakllanishida muhim omil vazifasini bajarganligini alohida ta'kidlash lozim.

Qolaversa, shoir ijodini keng ko'lamda o'rganishni targ'ib etishdan maqsad Navoiygacha mavjud bo'lgan xamsanavislikning shakllanishida bevosita shoirning o'rni borligi va an'anaviy yo'nalishda ham, noan'anaviy yo'nalishda ham o'z mahoratini ko'rsata olgan ijodkorning merosi adabiyot tarixida o'rganilishi lozim bo'lgan manba ekanligini isbotlaydi.

Badiiy adabiyot xoh she'riy shaklda, xoh nasriy shaklda bo'lsin, uning qiymati mazmuni, bosh g'oyasining puxtaligi, so'z ta'sirini kuchaytirish usullari, sujeti va kompozitsiyasi, ijodkorning so'z qo'llash mahoratiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda, ayniqsa, mumtoz adabiy manbalarda so'zlarning tushunilishidagi qiyinchiliklar ularni o'qilishiga bo'lgan ehtiyojning susayishiga olib kelmoqda. b iz ham mazkur bitiruv malakaviy ishni tadqiq qilish jarayonida mumtoz asarlarning o'qilishining qiyinligi, tabdilning yo'qligi tufayli matnning umumiy mazmuni borasidagi muammolarga duch keldik. Ijodkorning merosini o'rganishning ahamiyati haqidagi mulohazalarimizning yana biri shoir asarlaring tabdili ishlab chiqilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi – degan xulosaga keldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

I. Siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – 174 b.
2. Prezident Islom Karimovning Navoiy shahrida Alisher Navoiy yodgorlik majmuining ochilishiga bag’ishlangan tantanali marosimda so’zlagan nutqi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2001, №5.
3. Mirziyoyev. Sh. M. Biz buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017. – 484 b.

II. Ilmiy adabiyotlar:

4. Qosimxonov B. Qosimxonov B. Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari. –Toshkent.: Fan, 1987. 11-bet.
5. Sayyid Qosimiy. Haqiqatnoma. Sadoqatnoma // Muborak maktublar. – Toshkent.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va San’at nashriyoti, 1987. 144-182 hamda 183-209-betlar.
6. Qosimxonov B. Sayyid Qosimiyning adabiy-didaktik dostonlari. –Toshkent.: Fan, 1987.– 147 b.

7. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (O‘quv qo‘llanma). –T.: Yangi asr, 2006.
8. Abdullayev N. Haydar Xorazmiyning Nizomiy “M. ul-as”ga munosabati// O‘zbek tili va adabiyoti. 1974, # 2, 146.
9. Muhiddinov M. Komil inson adabiyot ideali. –T.: Ma’naviyat, 2008 y, -84 b.
10. Касымханов Б. Саййид Касыми и его литературно – дидактические поэмы. Автореферат. Ташкент – 1991. - 176.
11. Б. Валихужаев. Узбек эпик поэзияси тарихидан. Т. 1974. – 240 б.
12. А. Хожиахмедов. Мумтоз бадиият малохати. Т.: Шарк. 1999 – 238 б.
13. Қаямов А. «Ҳайрат ул-аброр» талқини. - Т.: Фан, 1977.
14. Н. Allamberganov. O‘quv – uslubiy majmua. Nukus – 2011. – 72 b.
15. Ҳамроева Дилором. “Ҳайрат ул-аброр” достонида лирик сюжет қисмлари ва қаҳрамон. УТА//-2003.-№3.-146.
16. Умаров Эргаш. “Хамса” поэтикасининг баъзи масалалари. УТА//-1985.-№1.-106.
17. Умаров Эргаш. “Хамса” ёзиш анъанасига Алишер Навоийнинг муносабати. УТА//-1990.-№1.-166.
18. Абдуғафуров Абдурашид. Шахс ҳуқуқи ва адолат (“Ҳайрат ул-аброр” достонидаги “Шоҳ Ғозий” ҳикояти мисолида). УТА//-2001.-№4.-276.
21. Is’hoqov. Yo. Naqshbandiya va o‘zbek adabiyoti. T. : O‘zbekiston. – 1989. - 45 b.
23. Салоҳий Д. Навоий назмиёти (Ўқув қўлланма). – Тошкент, 2012.
24. Салоҳий Д. Навоий эпик шеърляти (Услубий қўлланма). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011

III. Adabiy manbalar:

25. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. Majmua. 1 jild. Tuzuvchi: N. Rahmonov. – T.: Fan, 2005.

26. Muborak maktublar. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1987. 143-bet.
27. Навоийнинг нигоҳи тушган. Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1986. 187 – 215 б.
28. Асрлар нидоси. Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1982. 7 – 42 б.
29. Sayyid Qosimiy. Masnaviylar majmuasi. –Toshkent.: Fan, 1992. – 236 b.
30. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 2-том. – Т.: Фан, 1974.
31. Alisher Navoiy. MAT. 20 томлик XIII-tom. – Т.: Фан, 2000.
32. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 7-том. Ҳайрат ул-аброр. – Т.: Фан, 1991.
33. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
34. Ўзбек адабиёти (Хрестоматия). 3 –том. – Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1959.

IV. Dissertatsiyalarvaavtoreferatlar:

35. В.Касымханов. Саййид Касими и его литературно-дидактические поэмы. Автореферат кандидата наук. – Ташкент, 1991.

V. Elektron manbalar:

36. www. Ziyonet.uz.
37. www. Ziyouz. com.